

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“KASBIY TA‘LIM” KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Umumtexnika fakulteti

dekani: _____ dots. Y.T.Bobojonov

“ ” _____ 2011 yil

Ashurova Safiya Nurmamatovnaning

**5140900 Kasbiy ta‘lim (5540600 – “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi”
sohasi) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**“ KHK da “Xotin -qizlar milliy ko‘ylaklarini tikish” mavzusidagi amaliy
mashg‘ulot loyihasini ishlab chiqish” mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Akbarova N.A.

QARSHI – 2011

Mundarija

KIRISH.....	3
I. Xotin -qizlar milliy ko'ylaklarini tikish texnologiyasi.....	7
1.1. Zamonaviy milliy ko'ylak modellari.....	7
1.2. Milliy ko'ylaklarni tikish texnologiyasini ishlab chiqish.....	13
II. KXX da "Xotin -qizlar milliy ko'ylaklarini tikish" mavzusidagi amaliy mashg'ulot loyihasi.....	22
2.1. O'zbek kiyimlari tarixini o'rgatish jarayonida talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash.....	22
2.2. O'quvchilarning maxsus fanlardan mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda faol usullarni qo'llash.....	26
2.3. Modulli ta'lim texnologiyasi.	36
2.4. «Milliy ko'ylak tikish ketma-ketligini tuzish, mayda bo'laklarni tayyorlash» mavzusi bo'yicha amaliy mahsg'ulot ishlanmasi.....	41
2.5. «Milliy ko'ylak yig'ish ketma-ketligini tuzish» mavzusi bo'yicha amaliy mahsg'ulot loyihasi.....	55
XULOSA.....	67
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.....	69

Kirish

Fan texnika taraqqiyotining yuksak odimlar bilan rivojlanib borishi ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarni olib kirayotgan o'qishning interfaol uslublarini qo'llash ya'ni kompyuterlar vositasida darslarni tashkil etish va o'qitish shu kunning dolzarb bazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kasb-hunar kollejlarda, maktablarda, barcha ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan va boshqalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kasb-hunar kollejlarini tamomlab chiqayotgan bitiruvchilarni ishga joylashtirish. Bu masala ko'p jihatdan ularni tayyorlash sifati va mehnat bozorini qanchalik chuqur o'rganishimizga bog'liq ekanini unutmaslik kerak¹

Ta'lim sifatini oshirishga kuchli ta'sir qila oladigan didaktik vositalar, masofadan o'qitish dasturlari, qurilmalar, elektron pochta, elektron kutubxonalar, masofadan o'qitish dasturlari, animasion, ya'ni ta'sir va tovushni o'zida mujassamlashtirgan ko'rgazmali qurollar barchasi aynan kompyuter texnikasiga va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishga asoslanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonini ham bevosita qamrab olgan. Zero, Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"².

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayonida shunday o'qitish metodlarini tadbiq etish joizki, ular oxir – oqibatda o'quvchi-talabalarni mustaqil o'qish, fikrlashga, ilmiy-texnikaviy axborotlar bilan ijodiy ishlashga o'rgatsin, o'quvchi – talabalarni o'ziga xos fikrlashga yo'llasin, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirsin, o'qishga, mustaqil bilim olishga qiziqishini oshirsin, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishni tarbiyalasin, o'garuvchan ishlab chiqarish sharoitiga tez moslashish ko'nikmalarini shakllantirsin.

Kasb-hunar kollejlarda o'qitilayotgan bir qator maxsus fanlarni o'qitish bilan birga nazariy mashg'ulotlarni mustaqil o'zlashtirish uchun amaliy mashg'ulotlarni loyihalash jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil qilish hozirgi **davrning dolzarb masalalaridan xisoblanadi.**

Axborotlar ko'paygan va texnik vositalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda texnikaviy yunalishdagi fanlarni o'qitish jarayonida har bir mavzuga doir ma'lumotlar berishdia faqatgina kitobdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan mavzuga oid proyeksion ko'rgazmalar,

¹ Karimov I.A. 2010 –yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzadan. 22.01.2011 "Халқ сўзи" gazetasi, №16.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 61-b.

elektron darsliklardan, internet ma'lumotlari, turli dasturlarda tayyorlangan animatsiyalardan foydalanish juda muhim hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari keyinchalik tikuv fabrikalarida, yakka tartibda ish olib boruvchi tikuv sexlarida, kichik tikuv firmalarida tikuvchi chevar sifatida ishlashlari, ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko'rsatadi, ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishadi, jumladan internet bilan bevosita ish olib borishlari muqarrar.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib BMI da hozirgacha o'z o'rnini yo'qotmagan, konstruksiyasi va bichimiga, moda yunalishiga qarab tez - tez zamonaviy chizgilar, bezaklar, taqinchoqlar kabi o'zgartirishlar kiritilayotgani milliy ko'ylaklarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda tikish metodlarini tadqiq qilishni hamda mavzuni zamonaviy axborot ba pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda kasb hunar kollejlari "Xotin - qizlar milliy ko'ylaklarini tikish" mavzusidagi amaliy mashg'ulot loyihasini ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydik.

Bu mavzuni tanlashimizga sabab, hozirgi kunda ko'pgina tikuvchi chevarlarimiz ko'ylaklarni o'zlari bilgan holda modellashtirib yaratmoqdalar. Lekin keng iste'molchilar ommasini talabini qondirishda ayrim muammolar kelib chiqmoqda. Ya'ni, aytib o'tganimizdek ba'zi tikuvchilarimiz andozalarni tayyorlashda talab etiladigan qoidalarga amal qilmasdan (kasb-hunar kollejlari o'qimagan, ish tajribalarini mustaqil o'rgangan, o'zlari kabi ustozlarga shogird tushgan chevarlar nazarda tutiladi) milliy ko'ylakni modellashtirish, andozalarini tayyorlash va tikishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yishmoqda. Bu kamchiliklar kiyimni kiyganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun kasb - hunar kollejlari, mustaqil o'rganuvchi bichish – tikish kurslari o'quvchi talabalari uchun milliy ko'ylakni modellashtirish, bichish bilan birga tikish yuzasidan kerakli tavsiyalar keltirilgan sodda va tez o'zlashtiriladigan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish, **hozirgi kunning dolzarb muammolardan** biri deb hisoblaymiz.

Ishning maqsadi: Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish maqsadida "Xotin-qizlar milliy ko'ylagini tikish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlarni modulli o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rish

Ishning vazifalari:

- Milliy ko'ylak modellarini tanlash ba tavsiflash;
- milliy ko'ylakni bichish va tikish texnikasini tadqiq qilish;
- hozirgi kunda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurligi haqida mulohazalar yuritish;

- «Milliy koʻylakni tikish» mavzusidagi amaliy mashgʻulotlar loyihasini oʻqitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kichik guruhlarda ishlashga asoslangan “Modulli” taʼlim metodi asosida ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:

- bajarilgan tadqiqot ishlarini bevosita kasb taʼlimi oʻqituvchilarini tayyorlashda, kasb – hunar kollejlari taʼlim – tarbiya jarayonida qoʻllanishi mumkin, shuningdek bichish – tikish kurslari oʻquvchilari, mustaqil oʻrganuvchilar uchun ham uslubiy koʻrsatma sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy yangiligi:

- “Xotin qizlar milliy koʻylaklarni tikish” mavzusidagi amaliy mashgʻulotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida loyihalanganligi;

-amaliy mashgʻulotlarni bajarish qulay boʻlishligi uchun xotin-qizlar milliy koʻylagini tikish ketma-ketligi texnologik xaritasi tayyorlanganligi.

I. Xotin -qizlar milliy koʻylaklarini tikish texnologiyasi

1.1. Zamonaviy milliy ko'ylak modellari

Zamonaviy moda yo'nalishi milliy ko'ylaklarimizda ham o'z aksini topgan desak adashmaymiz. Kundan kunga milliy ko'ylaklarimizning yangi bichimlari, yangi siluetlari ba yangi shakllari yaratilmoqda. Bilamizki milliy ko'ylak asosan koketka, qop ba yeng qismlaridan iborat. An'anaviy milliy ko'ylak to'g'ri siluetli, koketka chizigi buylab burmali buladi. Old bo'lagida koketka bo'laklari bir – birining ustiga chiqib turishi yoki yaxlit bichilgan bo'lishi mumkin. Yoqali, yoqasiz bo'ladi. Yoqali bo'lsa yoqa o'mizi buylab utkazmali, qaytarma yoqali, tik yoqali, yoqa uchlarini bog'lanadigan (galstuksimon) bo'lishi mumkin. Yenglari o'tqazma, yarim reglan bichimli, old ba ort bo'lak bilan yaxlit bichilgan bo'lishi mumkin. Yeng bichimlari keng, tor, kapalaksimon, fonarik, burmali ba xakozo bo'lishi mumkin.

Xozirgi kunda milliy ko'ylak bichimlarida juda katta o'zgarishlar ruy bergan. Masalan: Etak kismi kengaytirilib, konussimon shaklda bichilgan ko'ylaklar. Bunday qopli ko'ylak yengi xam albatta konussimon shaklda bichiladi. Agar konussimon bichimli ko'ylakni elastik gazlamadan tikilsa uni etagi ba yeng uchlarini tortib zig-zag usulda qaytarib tikilsa juda chiroyli to'lqinsimon shaklga ega bo'ladi.


Milliy ko'ylak bichimlari bir xil bo'lsa-da, uning yoqa o'mizlari turlicha uyilishi mumkin. 2,3- rasmlarda to'g'ri bichimli milliy ko'ylakni turlicha yoqa o'mizli koketka turlari tasbirlangan. 4,5,6,7 - rasmlarda esa yoqa o'mizi va koketka tashqi shakli turlicha bo'lgan milliy ko'ylak modellari namunalari ko'rsatilgan.




1 – rasm. Ayollar milliy kuylining model turlari

Milliy ko'ylaklarimizni burmalar, kesmalar, tesmalar, kashta choklar ba munchoq (biserlar)lar bilan bezab tikish mumkin.


Burmalar modelga binoan asosiy gazlamadan, bezak gazlamadan, kontrast rangli gazlamadan yoki gazlama gullari ranglaridan biri aks etgan sidirg'a gazlamadan bichilgan bo'lishi mumkin. Qo'yida turli bichimdagi ba shakldagi zamonaviy milliy ko'ylak namunalarini tabsifini keltiramiz.



2- rasm. Munchoqlar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari



3 rasm. Bufflar va burmalar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari..



4-rasm. Kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari



5-rasm. Kashta ba burmalar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari

2, 3- rasmlarda milliy ko'ylak koketkalarining turli tuman ko'rinishdagi yoqa o'mizlari va bichimlarini tavsiya etamiz. Bu turli ko'rinishdagi koketkalarni kishi gavdasi, yoshi, gazlama turiga binoan hamda, kiyilish joyiga qarab tanlanishi shart. Ko'pincha yosh xotin qizlarimiz murakkab, bejirim bichimdagi koketka turlarini tanlashadi. Chunki yoshlar xar doim go'zallikka, qiziqarli yechimlarga ega bo'lgan kiyimlarni kiyimlarni tanlashadi. Bu ularni qiziqqonligidan, yoshligidan dalolat beradi.

Agar gazlama elastik, cho'zilubchan bo'lsa koketka o'tkir burchakli bo'lmasligi kerak. Chunki unga qanchalik qotirmalik gazlama yopishtirilmasin, burchaklari egilib chiroyli ko'rinish bermaydi. Qattiq, mustahkam o'rilishdagi gazlamalarga esa qanchalik koketka murakkab bichimda bo'lmasin chiroyli turadi. Bunga misol qilib atlas, adras, beqasam, krep kabi gazlamalarni misol qilish mumkin.

2- rasmlarda biserlar (munchoqlar) bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari ko'rsatilgan bo'lib, bu modellar bichimi yuzasidan bir biriga o'xshasada, bezak ko'rinishlari, yoqa o'mizlari o'yiqlarining turli tumanligi bilan fark qiladi. Ushbu modellarimizni yosh kelinlarimizga, o'rta yoshli ayollarimizga tabsiya kilamiz.

4, 5- rasmda esa koketkalari turli bichimda bo'lgan, buf ba bafli choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari berilgan. Bu modellar asosan yosh qizlarimiz, yosh kelinlarimizga mos keladi. Ularni shifon, krepdishin, shoyi kabi gazlamalardan tikish mumkin. Bezak buflarni

munchoqlar bilan xam bezash mumkin. Agar ko'ylak kundalikda kiyiladigan bo'lsa, bezak toshlarni kamroq ishlatgan ma'qul.

Xozirgi kunda kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylaklarimiz yana urf bo'lmoqda. Ayniqsa kelinlarimiz seplarida kashta chok bilan bezatilgan ko'ylaklarni juda ko'p uchratish mumkin. Kashta chok oralarini biserlar bilan to'ldirib tikilsa kashta choklar yanada chiroyli, ko'rkam va jozibador ko'rinishga ega bo'ladi. 54-rasmlarda kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylak namunalari berilgan.

Milliy ko'ylaklarimizni burmalar, tesmalar, ryushlar bilan ham bezab tikish mumkin. 5-rasmda quyma burmali ko'ylak namunalari keltirilgan.

Quyma burmali ko'ylaklarni ko'pincha yosh qizlarimiz va kelinchaklarimizga tavsiya qilamiz. Yoshi katta, to'la gavdali ayollarimiz esa burmali ko'ylaklarni kiymaganlari ma'qul. Chunki burmalar kishi gavdasini bo'rttirib ko'rsatadi.

Burma turlari ham gazlama turiga qarab turlicha bo'lishi muki. Undan tashqari xozirgi kunda ko'ylaklar uchun turli tuman tayyor bezak elementlarini dukanlarimizda ko'plab uchratishimiz mumkin. Faqatgina ularni gazlamaga, kishi gavdasi va yoshiga, kiyim turiga qarab tanlashimiz lozim deb o'ylaymiz.

Chiroyli kiyinishni har kim ham xohlaydi. Lekin chiroyli kiyinaman degan xotin qizlarimiz me'yorni unutmasliklari, ko'ylak uchun bichim va bezak tanlashda modeler va dizaynerlar maslahatiga rioya qilishlari lozim deb o'ylaymiz. Ana shundagina tanlagan kiyimi o'ziga yarashib turishi aniq. Ayniqsa zamonaviy kiyim elementlarini joyida qo'yib ishlatishlari kerak

1.2. Milliy ko'ylaklarni tikish texnologiyasini ishlab chiqish

O'zbekcha kiyimning ko'p asrli boy tarixi bor. Unda xalqimizning o'tmishi, iqlim sharoitimiz, turmushimiz ko'zda aks etadigandek topgan.

O'zbekcha ayollar kostyumi yangi zamonga, yangicha turmush tarziga, zamonaviy modaga muvofiq rivojlanishida davom etdi. Moda "shabadasiga" asoslanib ayollarning an'anaviy ko'ylagiga har xil zamonaviy o'zgarishlar kiritiladi.

Milliy kiyim va zamonaviy kostyumlarda xalq san'ati motivlarini qo'llash xozirgi kunda bu sohaning xodimlariga ancha vaziyat berdi. Bugun milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini tiklash uchun milliy kiyimga, uni zamonaviy elementlar bilan bezashga (kashta tikish: zarduzlik, patduzlik), zamonaviy moda yunalishiga asoslangan holda yo'l berildi.

Moda bir o'rinda to'xtab turmay, kundan kunga yangilashadi, o'zgaradi, qaytib keladi. Lekin, bu modellashtirish va badiy bezash asosida rivojlanadi va ruyobga keladi.

Shuning uchun milliy ko'ylaklarni tikishda zamonaviy kiyim elementlarini qo'llashda nimalarga e'tibor berish, qanday tikish texnologiyalarini qo'llash lozimligini aniqlash lozimdir:

Ko'ylaklarga kashta choklari bilan bezak berish.

Kiyimlar qadim qadimdan kashta choklari bilan bezab kelinadi, Lekin kashta chok bilan bezak berishda xar doim ham kiyim tashqi ko'rinishiga zeb bermaydi. Chunki kiyimga kashta chok solishda uni texnologiyalariga, rang tasvir qoidalariga, kishi salohiyatiga e'tibor berish lozim bo'ladi. Ayrim tikuvchilar bu kashta xozir modaga kirgan deb barcha kiyimlarga ham uni tikaveradi. Kiyimni tashqi ko'rinishini ochgan bilan kiyimni kim kiyganiga qarab kashta chok bezagini tanlash zarur xisoblanadi. Kiyimga kashta chok solishda qo'yidagilarga e'tiborni qaratish lozim deb topamiz:

- kiyimga kashta chok bilan bezak berishda kashta gullarini kiyim gazlamasi gullariga moslash, gazlama gullarini bug'masdan uni yanada yorqinroq, chiroyloroq qilib ko'rsatadigan gul elementlarinin tanlash;

- kashta gullarini rangini tanlashda gazlama gullarini ranglaridan birini tanlash yoki gazlama gullarini ochadigan ranglarni tanlash lozim;


- agar gazlama gulsiz sidirg'a rang bo'lsa kashta gullarini rangini gazlama rangini ochadigan, yoshi katta kishilar uchun bo'lsa sal siporoq rangni tanlash lozim;

- kashta ornamentini kiyimni qayerda kiyilishiga qarab tanlash lozim, masalan kiyim to'ylarga mo'ljallangan bo'lsa kashta ornamentlari to'laroq bo'lishi kerak, agar kiyim odatiy kiyiladigan bo'lsa gullari siyrakroq bo'lishi lozim qo'yida kashtalar bilan bezatilgan ko'ylak namunalarini keltiramiz;

- kiyimga kashta chok bezagini tanlashda albatta kishini yoshi, tashqi ko'rinishi, kiyimni qayerda kiyishi, kim kiyishiga e'tiborni qaratish lozim. Yoshi katta kishilarga mo'ljallansa sal rangsizroq, oddiroq kashtalarni tanlash kerak. yoshlarga, kelinlarga kiyim tikishda kashta gullari yorqinroq, rang-barang bo'lishini ko'zda tutuish lozim.

- milliy ifrixorimiz bo'lmish atlash gazlamadan tikiladigan kiyimlarga kashta chok bilan bezak berish yanada e'tiborliroq bo'lishlikni talab etadi. Chunki bilasizki atlasda kamalak ranglarini barchasi mujassam bo'lim. Noto'g'ri rang va kashta ornament tanlansa atlasni tashqi ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- atlasdan tikilgan kiyimlarga kashta chok bilan bezakk berishda yaltiroqligi kam bo'lgan iplarni tanlash maqsadga muvofiqdir.



7-rasm. Kashta chok bilan bezatilgan milliy ko'ylak namunalari.

Milliy ko'ylaklarda bezakli to'rlarni tikish texnologiyasi.

Milliy ko'ylaklarimizga moda yo'nalishiga qarab turli to'rlar va tayyor kiyim elementlari bilan bezash hozirda urf bo'lgan. Lekin barcha kiyimlar kabi milliy ko'ylaklarga ham to'rlar va kiyim bezaklarini tikishda ularda foydalanish qoidalariga rioya qilish bilan birga ularni kiyimuchun tanlay olish ham kerak bo'ladi. Kiyimga kiyim bezaklarini chiroyli tikkan bilan uni kiyimga estetik did bilan tanlanmasa u kiyimni chiroyini ochish o'rniga uni sifatini tushirishi mumkin.. shuni nazarda tutgan holda qo'yida kiyim bezakalaridan foydalanishni ayrim usullariini taxlil qilamiz.

- Kiyim bezaklari (to'rlar, tasmalar, burmalar, mag'izlar) ni tanlashda avvalo kiyim tiqiladigan gazlama xususiyatini e'tiborga olish lozim. Chunki gazlama tabiiy tolali bo'lsa kiyim bezagi ham shunga xos bo'lishi lozim. Kiyim gazlamasi sun'iy tollali bo'lsa kiyim bezagi ham sun'iy tolali bo'lishi kerak. kiyim gazlamasi kirishuvchan bo'lganda kiyimga bezakni o'rnatib tikishda albatta bu xususiyatni esda saqlagan xolda tikishi lozim aks xolda kiyim yuvilgandan so'ng kiyim bezagini qayta so'kib tikishga to'g'ri keladi.

- Kiyimga to'r yoki tasmali bezaklarni tikishda kiyim bezagi tikuv mashinasi tishli reykasida tomonida ya'ni kiyimni ostki tomonida bo'lishligini ta'minlash lozim. Chunki tishli reyka albatta kiyimga ma'lum chim tashlab tikadi. Kiyim detaliga to'r ulashda kiyim detaliga chim also tushmsligi kerak aks holda kiyim detalini osha joyi birishib chiroyli chiqmasligi mumkin.


- Kiyimga tayyor tasmalar – kantlar bilan ishlov berishda ham tasmani kiyimga o'rnatish qoidalariga rioya qilish lozim. Tasmani kiyimga tikishdan oldi unga namlab-issiqlik bilan ishlov berish lozim. Agar tasma yoqa o'miziga tikilsa, ya'ni botiq yuzaga tikilsa tasma ikkiga biqilib ochiq qirqim tomoni cho'zilib, yopiq qirqim tomoni kirishtirib dazmollanadi. Agar tasma qabariq

yuzaga, koketka ostki qirqimiga, yeng uchiga, cho'ntaklarga va h.k. tasma ikkiga buqilib yopiq qirqim tomoni chozilib, ochiq qirqim tomoni kirishtirib namlab dazmollangandan so'ng o'rnatilsa kiyim chiroyli chiqadi.

Kiyimga burmalar bilan ishlov berishda nimalarga e'tibor berish lozim?

Birinchi navbatda kiyim egasini yoshiga, chukki katta yoshli kishilarga aksariyat xollarda burmali kiyimlarni xavola etmaymiz. Chunki katta yoshli kishilarga burmali kiyimlar ularni bachkana qilib ko'rsatadi. Ularni yoshida burmasiz, burmali bo'lgan xolda xam sezilarsiz bo'lishi lozim.

Burmalar bichish jarayonida xam gazlamagan qiya burchak ostida qirqib olish lozim. Chunki burmalar ko'pincha to'g'ri qirqimli detallarga, ovalsimon detallarga, to'g'ri-qabariq-botiq yuzalarga tiqiladi. Shunday hollarda burmalarni xoxlagan yuzaga tikishni qulaylashtirish maqsadida shunday bichiladi.



8-rasm. Burma va tasma bilan bezatilgan milliy ko'ylak namunalari.

Milliy ko'ylaklarga turli applikasiyalar bilan ishlov beish.

Hozirda bozorlarimizda kashta choklarga moslab ishlab chiqarilgan yopishtiriladigan, tikiladigan, yelim bilan yopishtiriladigan applikasiyalarni ko'plab uchratish mumkin. Bu applikasiyalardan ham to'g'ri foydalanilmasa kiyim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bilamizki kashta tikish murakkab jarayon bo'lib, hamma tikuvchilar ham uni uddalay olmaydir. Shuning uchun ko'pincha tayyor kashtali applikasiyalardan foydalanadilar. Applikasiyalar kiyimga chiroyli ko'rinish berish bilan birga ayrim kamchiliklarni yopshi, ayrim choklarni ko'rsatmasligi. Kiyimga bezak berishda ishlatiladi. Applikasiyalarni tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim.

-birinchidan. gazlama rangi va gullarini e'tiborga olish lozim
Ikkinchidan, gazlama xususiyatiga mos tushishi kerak;
Uchinchidan gazlama narxiga, tashqi bezaklariga mos bo'lishi kerak;
To'rtinchidan kiyim egasini tashqi ko'rinishi, yoshi va kiyimni kiyish joyiga qarab tanlash kerak.

Ayrim hollarda oq rangli gazlamalarga yosh xotin-qizlar uchun qora, qizil, ko'k, yashil rangli applikasiyalarni tanlash mumkin ayrim xollarda esa gazlamadagi ranglardan eng ko'p uchraydigan rangiga qarab tanlanadi.

Applikasiyalarni kiyimga o'rnatishda gazlama va applikasiyani xususiyatiga e'tibor berish lozim. Agar kundalik kiyim uchun applikasiya tanlansa tikib o'rnatiladiganini tanlagan ma'qul chunki kiyim ko'p yuvilsa yelim o'z xususiyatini yo'qotishi mumkin. Kechalik kiyimlarga applikasiyalar tanlasganda yelimlisidan tanlasa bo'ladi.

Milliy ko'ylaklarni tikishda zamonaviy tikish texnologiyalaridan optimal foydalanish.

Yuqorida aytganimizdek hozirda bozorlarimizda xotin-qizlar kiyimlarini tikish uchun tirli-tuman gazlamalar bilan bir qatorda kiyim tikishda ishlatiladigan, kiyim tikish samaradorligini, sifatini oshirishda qo'llaniladigan kiyim elementlarini uchratish mumkin. Lekin bu elementlardan to'g'ri foydalanishni barcha tikuvchilar ham uddalay olishayapdi deb ayta olmaymiz. Demak shundan foydalansam kiyim sifatli chiqadi, kiyim egasi sifatli elementlardan foydalanib tikibdi degan ko'r-ko'rona qarashlar uchrab turadi. Shuning uchun quyida zamonaviy kiyim elementlaridan foydalanish texnologiyalari, ulardan foydalanishni optimal yo'llari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Yelimsimon not'oqima tasmalardan foydalanish. Hozirda do'konlarda yelimsimon, o'rgimchak uyasiga o'xshash rulonli tasmalar ko'p uchraydi. Ularni qayerlarda qo'llash mumkin? Ushbu yelimsimon tasmalarni ayniqsa elastikli gazlamalardan kiyim tikishda kiyim etagini qayirib tikishda, yeng uchini qayirib tikishda mashina chok o'rnida ishlatish mumkin. Agar mashinada qayirib tikilganda kiyim o'ngida chok o'rni qo'pol ko'rinishi mumkin. Yelimli tasma bilan yopishtirib bukilganda chok borligi bilinmaydi. Yeng yoki etak uchlari tekis bukilib, kiyim cho'zilganda ham chok sitilib yoki so'qilib ketmaydi.

Undan tashqari yelimli tasmalardan milliy ko'ylak old va ort bo'lak koketkalariga avra va astar detallarini qo'lda ko'klash jarayonini yengillatish maqsadida ham qo'llash mumkin.

Yelimsimon noto'qima tasmalardan foydalanishda qo'yidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

Tasma ikki detalni o'rtasiga qo'yilib sal namlanadi va dazmolmato ustidan dazmollanadi. Dazmollash jarayonida dazmol harakatda bo'lmasdan toki namlik ketgunga qadar ushlab turiladi, undan so'ng boshqa uchastka dazmollab yopishtiriladi. Agar dazmolni harakatlantirib dazmollansa tasma surilib ayrim joylaridan qochishi mimkin, yoki yelimsimon tasma uzilib o'sha joy yopishtirilmay qolishi mumkin.



9-rasm. Yelimli noto'qima tasma bilan kiyim etagi va yeng uchiga ishlov berish.

Lekin yelimsimon tasmadan xohlagan joylarda foydalanib bo'lmaydi. Masalan, paxta tolali gazlamadan tikilgan milliy ko'ylak etak va yeng uchlari faqat qaytarma chokli bahya bilan qayirib tikilishi lozim.

Yelimli flezilindan foydalanish. Ayrim milliy ko'ylaklar juda yumshoq, elastik xususiyatli gazlamalardan tiqiladi. Milliy ko'ylaklarni koketkalari tik tursa gavidada ghiroyli chiqadi. Shuning uchun yumshoq gazlamadan kiyim tikishda koketka astariga qo'shimcha material yopishtiriladi yoki qattiq astar tanlanadi. Yumshoq gazlamalardan tikilganda yelimli flezilindan koketka astariga bir qavat yopishtirish lozim. Flezilin gazlama xususiyati bilan uyg'unlashib ketadi.

Yelimli flezilindan foydalanishda ham ayrim texnologiyalarga e'tibor berish lozim. Flezilinni gazlamaga yopishtirish jarayonida dazmol yuzasini dazmolmato ustida haraqatlantirmasdan kerakli joylarda ko'tarib o'tqazish lozim. Chunki flezilish issiqlik ta'sirida yumshaydi, yelimi eriydi, agar dazmol gazlama ustidan susrib yangi yoyga o'tkazilsa yopishtirilgan yuza dazmol bilan birga suriladi. Shuning uchun yelimlangandan so'ng dazmolni surib o'tqazish mumkin emas.

Yelimli flezilin yoki yelimli tasma ishlatilganda dazmol albatta dazmolmati yoki maxsus qog'oz yordamida dazmollanishi shart. Aks holda dazmolni yuzasiga yelim yopishib qolib dazmollah jarayoni qiyinlashadi.

Tukli matolardan kiyim tikishni o'ziga xos xususiyatlari.

Tukli gazlamalardan kiyim tikishda ham ayrim qonuniyatlarga e'tiborni qaratish lozim. Tukli matolardan kiyim tikish oddiy matolardan kiyim tikishdan tubdan farq qiladi. Tukli matolar bilan ishlashda e'tiborliroq bo'lish lozim. Ayrim tukli matolar dazmollash jarayonida tuki bosilib o'sha joy yaltirab qoladi va kiyim sifati buziladi. Bunday matolardan kiyim tikishda, ayniqsa dazmollash jarayonida mayday-mayda temir tishli tasmalardan foydalanish lozim. Kiyim pastki tomoniga tishli tasma qo'yiladi va dazmollanadiigan qirqim ehtiyotlik bilan amalgam oshiriladi. Tukli matoni tuklari tishli tasma orasiga kirib, qayrilmaydi, dazmollash jarayoni tugaganda gazlamani tuklari avvalgi xolatini saqlaydi. Shunday xollarda ham matoni tuki yaltirab qolsa, qirqim cho'zib tiqiladi va qattiq qoqib qirqim dazmollanmasligi kerak bo'ladi.

Tukli gazlamalardan kiyimtikishda tiqiladigan qirqim chamalab ilgaklar yordamida har joydan ildirib qo'yiladi, undan so'ng mashina chok yuritiladi. Tukli gazlamani ilgak ildirmasdan tikilsa gazlama tuklari surilib qirqim tomonlari uzun-kalta bo'lib qolishi mumkin. Oldinlari bunday gazlamalarni avval qo'lda ko'klab keyin tikib chiqilardi. Hozir esa tayyor bir tomoni to'mtoqlangan ilgaklarni bozorlarda ko'plab uchratish mumkin.

Tukli gazlamalar ko'pincha sitiluvcha bo'ladi bunday gazlamalardan kiyim tikishda qirqimlari albatta yo'rmlanishi lozim.

Tukli gazlamalarni bichish jarayoni ham ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Tukli gazlamalardan kiyim bichishda, tuksiz gazlamaga nisbatan ancha ko'proq gazlama sarflanadi. Chunki andozlar gazlamaga faqat bir tomonlama joylashtiriladi.

Milliy ko'ylaklar uchun bezak elementlarini tanlash. Bezak elementlari juda xilma xil bo'lib ularni tanlashda nimalarga e'tiborni qaratish lozim.

- gazlama xususiyatlariga;
- gazlama rangi va gullariga;
- gazlama narxiga va gazlama bezaklariga;

- kiyim turiga;
- kiyim kiliyilish joyi va kiyim egasini yoshi, tashqi ko'rinishiga;
- kiyim fasosiga

Agar milliy ko'ylak kundalik ishlarga mo'ljallangan bo'lsa kiyim bezagi unchalik sezilmaydigan, ko'zga tashlanmaydigan bo'lishi shart. Masalan tesmalar, to'rlar, jiyaklar va xakozo..

Agar kiyim kechalik kiyim bo'lsa va gazlama qimmat narxli bo'lsa unda gazlamaga xoz besaklar tanlanadi. Gazlama rangi, gazlama gullarini rangi va shakli, gazlama bezaklari (toshlari, ko'zchalari, tesmalari) turiga qarab bezak gazlama tanlash lozim. Ayrim xollarda galamani o'zi bezaklarga boy bo'lsa gazlama bezaklarini qirqim joylardagi bezaklari ehtiyotlik bilan so'qilib uni kerakli joylarga o'rnatish mumkin. Ayrim boy bezakli gazlamalarga ortiqcha bezak berilsa kiyim bachkanalashib ketadi. Unday xollarda bu kiyim kechalarda kiyilsa ham bezak elementlar qo'llanilmaydi.

Milliy kiyimlarga toshli bezaklardan tanlashda toshni rangi ham gazlama rangi yoki gazlama gullarini ko'p takrorlanadigan gangiga mos ravishda tanlanadi. Aks xolda kiyimga bezak ko'rk berish o'rniga uni sifatini buzadi.

Demak kiyimni qanchalik sifatli tikkan bilan uni bezaklarini, kiyim elementlarini to'g'ri tanlanmasa, tanlangan elementlardan to'g'ri foydalanilmasa kiyim sifatli ciqmaydi. Shuning uchun biz yuqorida bergab tavsiyalarga amal qilinsa kiyim sifatiga kafolat berish mumkin bo'ladi.

II. KHK da “Xotin-qizlar milliy ko'ylaklarini tikish” mavzusidagi amaliy mashg'ulot loyihasi

2.1. O'zbek kiyimlari tarixini o'rgatish jarayonida talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash

Kiyim-kechaklar har bir xalq tarixi bilan uzbiy bog'liq bo'lib, moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi.

Kiyimlarda el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din ba estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti ba siyosatida bo'layotgan o'zgarishlar bilan barabar kiyim shakllari ham o'zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik to'g'risidagi ideallari, xo'jalik

yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'zbek milliy kiyimining ko'p asrli boy tarixi bor. Unda xalqimizning o'tmishi, iqlim sharoitimiz, turmush tarzimiz ko'zguda aks etgandek ifoda topgan. Mahalliy urf-odatlar, ayniqsa, ayollar kiyimida yaqqol seziladi. Kiyimning shakli, bichimi, ranglari ba bezaklariga ko'ra ayolning qaysi viloyatdan ekanligi, ijtimoiy mavqei, yoshi, oilaviy ahvoli to'g'risida bilib olish mumkin bo'lgan.

O'zbek ayollari kiyimi ko'ylak, lozim, mursak, to'n, peshmat, kamzul ba nimchalardan ba ko'chalik kiyim – paranji-chachbondan iborat bo'lgan. Bosh kiyimlari – turli usulda o'raladigan ro'mollar, oyoq kiyimlari esa maxsi-kabush bo'lgan.

Ko'ylaklar - to'g'ri bichimli, keng ba uzun, deyarli yerga tegib turadigan, etagi biroz kengaygan, yenglari to'g'ri va uzun bo'lgan. Ayollar ko'ylaklarining turlaridan biri «*oldi ochiq ko'ylak*» bo'lib, oldi qismida belgacha to'g'ri qirqimi bo'lgan. Ko'ylaklarning oldidagi tik kesimlar maxsus to'qilgan yoki gazlamadan ishlangan bog'ichlar bilan bog'langan. Aytishlaricha bu odat Fotima onamizdan meros bo'lib, ular o'g'illari Hasan ba Husaynlar halok bo'lishganida, ularning kiyimlaridan tasma shaklida bo'laklar yirtib olib, ko'ylaklariga bog'ich qilib olgan ekanlar.

Qizlar ba yosh bolalar yoqa o'mizi ko'ndalang– yelkadan yelkagacha qirqimli ko'ylak kiyishgan. Bu ko'ylaklar «*kipti*», «*kiptakli ko'ylak*» deb atalgan (fors. *Kift* – yelka). Bunday ko'ylak «*mullacha ko'ylak*» deb ham atalgan, chunki uni ko'pincha mullalar, eshonlar, madrasa talabalari ham kiyishgan.

Qadimgi to'g'ri bichimli ko'ylaklar yengining tagiga boshqa rangdagi gazlamadan to'rtburchak shaklida «*hishtak*»lar tikilgan. Ba'zan boshqa rangdagi hishtaklar bolalar ko'ylaklariga ham tikilgan, bu uzoq kutilgan, «tilab olingan» farzand ma'nosini bildirgan. Qadimda yosh ayollar ba kichkina bolalar ko'ylaklarining etaklari bostirilmaganligi kabi yuqoridagi irimga ham ilohiy ma'no berilgan.

O'zbeklarda qizlarning ko'ylagi nikoh o'qilgandan so'ng, ota-onasi uyida ayollar ko'ylagiga almashtirilgan. Kuyobning uyiga kelinni yoqa o'mizi tik kesimli ko'ylakda olib borishgan. XIX – asrning 80-chi yillarida tik yoqali (*no'g'ay yoqa*) ko'ylaklar paydo bo'la boshlagan. Ba'zan bu yoqalarni «*it yoqa*» deb ham atashgan (itlarning bo'yinbog'iga o'xshatilgan).

1900-chi yillarga kelib Toshkent ayollari orasida oldi koketkali, ko'krak qismi burmalangan, «*shapang yoqa*» deb atalgan qaytarma yoqali «*ko'krakburma ko'ylak*»lar keng tarqalgan. Keksa ablod bu urfga yanada ko'proq norozi bo'lgan. SHunga qaramay

«ko'krakburma ko'ylak»lar asta-sekin ommabiy rabishda qabul qilina boshlagan ba an'anabiy to'g'ri bichimli, tik yoqali ko'ylaklar qatorida o'zbek milliy ko'ylagi sifatida hozirgacha saqlanib qolgan.

Ustki kiyimning qadimiy turlaridan *peshbon*, *mursak*, *to'n*, keyinchalik *peshmat*, *kamzul* ba *nimchalar* ma'lum. Ustki kiyimlarning XIX asrga kelib yo'q bo'lib ketgan qadimiy turlaridan biri *peshbondir*. Aytishlaricha *peshbon* ham *mursak*ka o'xshab ketadigan ustki kiyim turi bo'lgan, faqat uning yoqasi ham bo'lib, yenglari nisbatan uzunroq bo'lgan ba *mursak*dan farqli o'laroq, uning ziylariga jiyak tikilmagan. Tadqiqotlarga ko'ra, *peshbon* kelinlar yopinchig'i sifatida ishlatilgan (tojikcha *peshband* – yuzini to'subchi yoki *peshbon* – yuzini asrobchi ma'nolarini anglatgan so'zlardan kelib chiqqan bo'lsa kerak.) XIX asrning boshlarida oddiy chopon yoki *mursak* ko'rinishida bo'lgan *peshbon*, asr o'rtalariga kelib ro'mol shaklini olgan.

XIX asrning 70-90 chi yillarida *mursak* ayollar ustki kiyimining asosiy turi hisoblangan. Har bir kelinning sepida 2-10 tadan, ba'zan 18 tagacha *mursak*lar bo'lgan: kundalik, kishilik, uyichilik ba h.k.z. *Mursak* XIX asrda ba XX asrning boshlarida unashtirish marosimida kelinga yuborilishi lozim bo'lgan kiyimlardan biri edi. Ota-onalar qizlarini birinchi bor uylariga chaqirganlarida («*challar*» marosimida) *mursak* kiygizishgan. Nikoh marosimida kelinga kiygizilgan *mursak* to'ydan keyin kelinning onasiga sobg'a qilingan. XX asrning ikkinchi o'n yilligiga kelib, *mursak*lar ramziy bir ma'noda qolgan, amalda uning o'rniga *kamzul* ishlatilgan. Faqat kelinni kuyobning uyiga olib kelingandagina, unga *mursak* kiydirilgan ba keyinchalik uni yangalarga berilgan. XX asrda *mursak* kiyim sifatida o'z ma'nosini butunlay yo'qotgan ba faqatgina dafn marosimlaridagina qo'llanilgan. Ayollarning asosiy ustki kiyimi «*paranji*» hisoblangan ba XX asrning boshlarida ham kiyilgan. *Paranji*ni ayollar ko'chaga chiqqanlarida boshlariga yopib chiqishgan. *Paranji* bilan birgalikda ayollar yuzlariga «*chachbon*» tutishgan (fors. *chashmband*- ko'z uchun bog'ich, ko'zni to'subchi (balki ko'zdan to'subchi), ba'zi biloyatlarda «*chimbati*» deb ham atalgan. *Paranji* so'zi «*faroji*» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kiyim ma'nosini bildiradi. *Paranji* to'n ko'rinishida bo'lib, boshga yopilib, gavdani yashirib turish uchun xizmat qilgan, yenglari o'z amaliy bazifasini yo'qotgani sababli ort tomonda bir-biriga chatib qo'yilgan. Bora-bora yenglar ingichka ba uzun shaklga kirib, soxta yeng – «*bandak*» deb atalgan. *Paranji* yopinish barcha yoshdagi ayollar uchun majburiy bo'lib, qiz bolalar 9 yoshdan boshlab *paranji* yopinishni boshlaganlar. *Chachvon*lar qora otning yolidan to'qilgan ba chetlariga qora rangli matodan mag'iz tikib chiqilgan. YAxshi tutilsa, 1 ta *chachbon* umr oxirigacha etgan.

Ayollar bosh kiyimi – ro'mol hisoblangan. XX asrga kelib qiz bolalar ba kelinchaklar do'ppi kiya boshlaganlar. Ungacha do'ppini faqat erkaklar ba yosh bolalar kiyishgan. XX asr

boshlarida do‘ppi kiygan ayollarga salbiy munosabat bildirilib, aybga buyurishgan ba ularni «*satang*» deb atashgan. Urf-odat bo‘yicha ayollar do‘ppini umrlarida bir marotaba – go‘shangaga kirganda kiyishgan, bunda kuyob o‘z do‘ppisini echib kelinning boshiga kiygazgan, kelin esa uning o‘rniga yangi do‘ppi sobg‘a qilgan. 20-chi yillarga kelib do‘ppilar keng urf bo‘lgan, ularga munosabat ham o‘zgargan.

Bugungi kunga kelib, albatta ayollar ko‘ylagi juda o‘zgarib ketgan bo‘lsa ham, shakli va bichimi saqlanib qolgan bo‘lib turmushda ishlatilib kelmoqda. Ayollarning an‘anaviy milliy ko‘ylagi milliy mansublik simvoli bo‘lgani uchungina emas, balki, asosan xalq kostyumida iqlim xususiyatlariga, tevarak atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to‘g‘ri keladigan ratsional shakllar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi. Ayollar ko‘ylagidagi yorqin ranglar mutanosibligi o‘lkamiz tabiatiga monand tushgan bo‘lib, shaklining kengligi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi.

Milliy liboslar tarixini o‘rganish jarayonida, ularni kiyish bilan bog‘liq bo‘lgan an‘analar, urf-odatlar ba rasm-rusumlarni o‘rganish talabalarining qiziqishlarini oshiradi ba ularni xalqning madaniy merosini chuqurroq o‘rganishga undaydi. O‘zbek liboslarining turmushda qanchalik muhim ahamiyat kasb etganligini talabalarga singdirishdan maqsad – yoshlarga milliy o‘zligini anglatish, xalqimizning boy madaniy merosini aks ettirish ba davomiyligini anglatishdan iboratdir, bu esa ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

2.2. O‘quvchilarning maxsus fanlardan mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda faol usullarni qo‘llash

Zamonaviy ta’lim – o‘quv jarayonida ishtirok etuvchilarning faolligini oshirishni talab etadi. Chunki ananaviy ta’limda aynan mana shu muammoga yetarli darajada ahamiyat berilmaganligi sababli ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milly dasturi”da talab darajasida amalga oshirish ta’kidlangan. Kasb-hunar kollaejlari o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirish uchun ularning ijodiy qobiliyati va mustaqil ishlash faolligini oshirish muhim.

Kasb-hunar kollaejlarida maxsus fanlarni o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarda texnik va texnologik obyektlar va jarayonlar haqida bilimlar berish, amaliy ish –

harakat usullarini o'rgatish, shuningdek shaxsiy fazilatlar, ijodiy fikr yuritish va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanib borishi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida kadrlar tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish; fan-texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatishda ularning izlanuvchanlik, ijodkorlik, fikrlash qobiliyatlarini yuksaltirish, nutq madaniyatini o'stirish; kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida axborot-kommunikasion texnologiyalar xizmatidan maqsadli ravishda samarali foydalanish; o'quvchilar kasbiy fanlar va ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Psixologiyada faoliyat – shaxasning maqsadga muvofiq yo'naltirilgan ongli munosabati va hatti-xarakatlarini amalga oshirish shakli sifatida qaraladi. Insonning har qanday faoliyati, shuningdek o'quv-bilish (aqliy) faoliyati ham psixologik tayyorgarliksiz ko'zlangan samarani bermaydi. Demak, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida ta'lim oluvchining o'rganilayotgan o'quv materialiga nisbatan qiziqish, havas, hohish-istak uyg'otish, mantiqan va ijodiy fikrlashiga shart-sharoit yaratish zarur.

I.A.Allayorov ta'lim-tarbiya ishining mazmuniy va jarayoniy tomonlarini yaxlit va uyg'unlikda tadqiq etib, "faol ta'limning didaktik asoslari – bu jarayon ishtirokchilarining ongli, oqilona munosabatlarini o'rnatilishi va yuqori sifat hamda samaradorlikni ta'minlanishi" deb talqin etgan.

Faol bilish – deb ko'rsatadi A.M.Matyushkin, - muntazam ravishda, birin-ketin topshiriqlar berish, muammoli vaziyatlar hosil qilish natijasida yuzaga keladi. Modomiki, faollik onglik natijasida vujudga kelar ekan, u maxsus fanlarni o'rganish mazmuni, shakli, metod va vositalarini muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi. Faollik darajasini belgilashda materialning amaliy jihatdan muhimligi, murakkablik darajasi hisobga olinishi lozim.

I.Ya.Lerner faollikni mustaqillikning shart-sharoiti sifatida qaraydi, chunki shaxs faol bo'lmasdan mustaqil bo'la olmaydi. Muallif faollik va mustaqillik darajalari sifatida "oddiy faollik", "haqiqiy mustaqillik" terminlaridan foydalangan.

Fikrlash faoliyati o'z navbatida ma'lum shart-sharoit yaratilishini taqozo etadi. Demak, fikrlash uchun zarur bo'lgan oqilona shart-sharoit yaratilsa, tahsil oluvchi faol faoliyat ko'rsata olishi mumkin bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun murakkablik darajasidan kelib chiqib o'quv materialini turli shakllari ishlab chiqishi kerak. Maxsus fanlarni o'rganishda faollikning quyidagi darajalaridan foydalanilgan.

1. *Faollikning birinchi darajasi* – o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini qayta takrorlashi, uni xotirada tiklashi hamda o'qituvchining bevosita rahbarligi va ko'rsatmalari asosida unga ergashib bajaradigan ishlari yoki berilgan namunaga qarab aynan bajaradigan topshiriqlari jarayonida namoyon bo'ladi. Chunki, o'quvchilarning o'tilgan nazariy materialini eslashi, unga mos keladigan ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarini namunaga qarab yechimini topish hatti-harakatlarini qayta xotirlashga xizmat qiladi

Qayta xotirlash xarakteridagi o'quv topshiriqlari o'quvchilardan qayta xotirlash darajasidagi faollikni talab qiladi.

O'quvchi namunaga binoan ish xarakatlarini bajarar ekan uning faolligi chegaralanadi, ya'ni u belgilangan doiradan chetga chiqa olmaydi. Mashg'ulotda ko'proq tushuntirish – namoyish etish va faol metodlardan foydalanganilganda faollikning ana shunday birinchi darajasiga erishiladi.

2. *Faollikning ikkinchi darajasi* – o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonning mohiyatini tushunishni, ma'lum ma'noda ijodiy fikrlash elementlarini taqozo etadi. Faollikning bunday darajasi o'rganilayotgan obyekt va jarayonlardagi o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash, o'zlashtirilgan bilimlarni ma'lum o'zgartirilgan holat va vaziyatlarda qo'llanishini ko'zda tutadi.

3. *Faollikning uchinchi darajasi* – ijodiy xarakterdagi hatti-harakatlarni talab etadi. Ko'zlangan o'quv maqsadga erishish yo'lida ijodiy faoliyatni ko'rsatadi. Qisman izlanish xarakteridagi faoliyat to'la ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Faollikning bu darajasi egallangan bilimlar tizimli, chuqur va puxta bo'lib, ulardan istalgan sharoitda foydalanish mumkin.

Shunday qilib, faollik o'quvchi faoliyatining muhim jahami hisoblanadi. Faollik darajasi birinchidan, o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishga qiziqish, ularda mustaqillik kabi xususiyatlarini qanday darajada mavjudligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan shart-sharoit, tanlangan shakl, faol metod va didaktik vositalarga bog'liq bo'ladi.

Faol ta'lim metodlaridan o'runli va maqsadli foydalanilganda pirovard natija – ta'lim samaradorligi an'anaviy ta'limdagiga nisbatan har doim yuqori bo'ladi. Eng asosiysi o'quvchida mustaqil fikrlash, turli masalalarni va muammolarni mustaqil yechimini topish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi malakalarni shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasi bitiruvchilarining mustaqil hayotga qadam qo'yishlarida, mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining mashg'ulotlarda mustaqil munozara va fikr yuritishga, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning faol usullari ishlab chiqilgan.

Ko'pgina olimlar tomonidan kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni modulli texnologiya asosida o'qitishda faol usullarni qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan va amalda qo'llash metodikalari ishlab chiqilgan.

Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni loyixa usulini qo'llab o'qitish metodikasi tadqiq qilingan.

Faol ta'lim metodlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham aniqlangan. Bularga an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan vaqtning ko'p talab qilishi, o'qituvchidan alohida tayyorgarlik va pedagogik mahorati talab qilishi kiradi.

Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'rganishda faollikni ta'minlashdan oldin o'quvchilarning bilim darajasi, uni o'zlashtirganligi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarni tahlil qilish zaruriyati tug'iladi. Chunki egallangan bilimlarni har tomonlama tahlil qilmay turib, o'quvchilarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi va ijodkorligi, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Faollik- ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ish - harakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

Kasb -hunar ta'limida amaliy ko'nikmalar o'rganish, asosan mehnatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, chunki bunday ta'lim qismlari kasbiy- mantiqiy emas, balki xarakteratlarga yo'nalgan tarzda kechadi. Ko'pincha o'z kasbini, sohasini a'lo darajada eghallagan mutahassislardan misol uchun biror ish tartibini tushuntirib berish so'ralsa, ular ko'pincha sergaklik bilan tushuntirishni boshlaydilar, ikkinchi darajali masalalarga to'htalib, qisqa va lo'nda tushuntirib bera olmaydilar.

Kasb-hunar kollejlari o'tkazilgan pedagogik tajribalar asosida maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularning mustaqil va ijodiy ishlar faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi faol usullardan foydalanish yuqori samara berishi aniqlandi.

Motivasiya usuli.

Maxsus fanlarda nazariy mashg'ulotlar o'quvchilar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taaluqli bo'lmagan mavzular to'g'risidagi suhbat bilan boshlanishi lozim. Iloji bo'lsa, darsga bog'liq

bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan, qiziqarli kashfiyot yoki yangilik tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o'quvchilarning kayfiyatiga, shu sihaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda o'quvchilar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar, dars birinchi bor yangi o'quv guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, o'quvchilarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu o'quvchilarda ishinch tug'diradi, o'quvchilar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivasiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinli (ichki) va ekstrinli (tashqi) motivasiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivasiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga maxsus fan bo'yicha yangi o'quv materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin – mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

O'quvchilarga mavzularga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini yengillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni o'qib chiqish uchun yetarli daqiqalar berish va o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni yechish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

Guruhiy ishlash. Maxsus fanlar o'qitish jarayonida guruh bo'lib ishlash shaklining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Maxsus fanlar bo'yicha nazariy bilimlarni berishda va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda guruhiy ishlar olib borilishi mumkin. Bu borada barcha talabalar bir necha kichikroq o'quv guruhlariga taqsimlanadi va bu guruhlar mustaqil ishlaydilar. Kichik guruhlarning ish natijalari keyinroq butun guruh doirasida muhokama qilinishi mumkin.

Guruhiy ishlar maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar o'rganilishi kerak bo'lganda, shuningdek talabalarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Bir nechta talabalar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va

xarakterlari orasida o'zaro hamkorlik vujudga keladi. Shuning uchun guruhiy ish tashkil qilish ko'ra murakkabroqdir.

Guruhli bo'lib ishlashda ikkita xolat farqlanadi:

- bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi;
- bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi.

Bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida bir necha guruhlariga bir xil topshiriqlar beriladi. Topshiriq va mashqlarni yechish sharoitlari ham bir xil bo'ladi. Shunday qilib har xil yechimlar guruh ishi tugaganidan so'ng bir-biri bilan taqqoslanishi mumkin. Ko'pincha bunday hollarda raqobat holati yuzaga keladi. Yechim topilishi vaqtida esa raqiblikka o'xshash holatlar vujudga keladi. Bu yerda muhim narsa shuki, guruhlardagi talabalarning bilim va ko'nikmalari imkon qadar bir xil bo'lishi kerak.

Har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida beriladigan ish topshirig'i bir necha qismlarga bo'linadi. Faqat bu qismlar birlashtirilgandagina topshiriqning mazmuni aniq ko'rinadi.

Har bir guruh bu holda qisman topshiriq oladi va mustaqil ravishda uning ustida ishlaydi. Lekin bu holda ishlarning taqsimoti ancha murakkab bo'ladi, yechimga ta'sir qiluvchi ko'pincha farq shart-sharoitlar va vaqtlar hosil bo'ladi.

Bunday yondashuvda bir guruh talabalari faqat o'zlariga berilgan topshiriqlarni bilishadi xolos, ya'ni boshqa guruhlar ishlari haqida deyarli xabarlar bo'lmaydi. Shuning uchun ham natijalar qisman birlashtirilishi zarur.

Guruhiy ishda berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, chunki ularda talabalar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor. Guruhiy ish uchun quyidagi o'qitish shakllari mos keladi:

1. Ustaxona shaklidagi guruxiy ish:

Ustaxonada bajariladigan amaliy mashg'ulot doirasidagi vaziyatga o'xshash kelajak faoliyat bo'yicha stenariylar va muammolar ishlab chiqiladi. Buning uchun dolzarb muammolar o'rganib chiqilishi kerak. Bu muammolar o'quvchilarning dastlabki bilimlar darajasini inobatga olgan holda va ijodiy fikrlash bilan bog'liq holda talabalarni yechimlarga undashlari kerak.

2. "Reja o'yini" shaklidagi guruhiy ish:

"Reja o'yinlari" belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar bunda muammoga bo'lgan har xil ta'sirlar natijaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rilishi kerak. Masalan, har xil kompyuter dasturlari orqali korxona va firmalar faoliyati sohasidagi masalalarni "o'yin orqali"

sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar o'yin jarayonida o'zaro raqobat munosabatida bo'ladilar.

3. Loyiha shaklidagi guruhviy ish:

Loyixaviy ish bir loyixani aniq belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruhviy ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo'yicha aniq taqsimlanishi kerak bo'ladi.

3. Munozara usuli jarayonida yuzaga keladigan bahslashish fikrlashning ifodasi bo'libgina qolmay, shakllanib kelayotgan shaxs o'zining biror narsani xal etish, mustaqillikda kattalar bilan teng huquqli ekanligini yoqlash ehtiyojidir. Dars jarayonidagi baxs chog'ida o'qituvchi o'quvchilar bilan baravar haqiqat izlovchisi bo'lib harakat qiladi. Ana shu bahsda u o'z bilimini namoyish etadi, keng fikrlaydi, fikrlarini dalillar bilan asoslaydi, bu fazilatlar esa o'quvchilar o'rtasida o'zaro katta hurmat uyg'otadi. Bahs jarayonida har bir o'quvchining "shaxsiy fikri", o'z mavqeini ifodalash va asoslash malakasi yuksak qadrlanadi.

1. **Mashq.** Mashq – bu o'tilgan o'quv materiallarini amaliyotda qo'llash maqsadida, rejali tashkil etilgan amallarni ko'p marotaba bajarishdir. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, u ko'nikma va malakalarni samarali shakllanishini ta'minlaydi.

Mashq – ko'nikma va mahoratlarning tashkil etuvchilari bolganligi kabi ishlab chiqarish ta'limining ham asosiy usuli bo'lib hisoblangan mashqlar bilan shakllanadi. Mashq deganda ongli ravishda ma'lum bir faoliyat usuli bo'yicha amaliy harakatlarni ko'p martalab takrorlash tushuniladi.

Talabalarning mustaqil kuzatuv. Bu usul asosan murakkab tuzilishdagi jixozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kasbni egallamoqchi bo'lgan talabalarning ishlab chiqarish ta'limida q'llaniladi.

Kuzatuv o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda, ishlab chiqarish ta'limi ustasining nazorati va uning ko'rsatmalari bo'yicha o'tkaziladi. Topshiriqda odatda mustaqil kuzatuvlar maqsadi qo'yiladi, ularni o'tkazish tartibi ko'rsatiladi va kuzatuv natijalarini qayd qilish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Maxsus fanlar bo'yicha mashqlarni quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Sharxlangan mashqlar o'quv jarayonini faollashtirishga, vazifalarni ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi. Ushbu mashqlarning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchilar va o'quvchilar bajarayotgan ishlarni sharxlaydilar, natijada ular o'zlashtiriladi va tushunib yetadi. Avval bunga eng yaxshi o'quvchilar jalb etiladi, keyin esa o'quv materialini tushuntirishda butun guruh ishtirok etadi. Sharxlangan mashqlar usuli o'quv mashg'ulotining yuqori suratini

ta'minlaydi, materialni barcha o'quvchilar tomonidan ongli va mustaqil ravishda, mustahkam o'zlashtirishiga yordam beradi.

Og'zaki mashqlar ta'lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ularning bilim imkoniyatlari bilan bog'liq.

Yozma mashqlarning asosiy vazifasi – kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat.

Grafik mashqlar ishlab chiqarish jarayonlari bosqichlari o'rganish jarayonida ishlatiladi.

Laboratoriya – amaliy mashqlar mehnat asboblari, laboratoriya uskunalaridan (jihozlar, o'lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi. konstruktorlik – texnik maxoratni rivojlantiradi.

Ishlab chiqarish – mehnat mashqlari o'quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab bo'ladi: birinchisi – alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari, ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va x.k.) ko'zda tutilgan.

Ishbilarmonlik yoki rolli (vaziyatli) o'yin.

Ishbilarmonlik yoki rolli vaziyatli o'yinlar – muammoli vazifaning bir turi bo'lib, faqatgina matnli o'quv material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Ishbilarmonlik va rolli vaziyatli o'qyinli o'yinlar ta'lim usuli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- **O'rgatuvchi:** umumta'lim mahoratni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni o'stirish; shu jumladan: yangi vaziyatlarni tushuntirish, aniqlash va tahlil qilish;

- **Rivojlantiruvchi:** mantiqiy tafakkurni, nutqni, atrof-muhit sharoitiga oqobiliyatini o'stirish;

- **Mativasion:** o'quvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosaga kelishiga rag'batlantirmoq;

- **Tarbiyaviy:** masuliyatni, mustaqillikni shakllantirish.

Muammoli vazifalar usuli.

Muammoli vazifalar usuli – o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U, aniq vaziyatlarni taxlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat. Bu usulning yetakchi funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- o'rgatuvchi: bilimlarni dolzarblashtirishga asoslangan;

- rivojlantiruvchi o'quvchilarga taxliliy tafakkurni berib, alohida dalillar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishni shakllantirish;
- tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning mustaqil ishlarini murakkablashtirishga asoslangan: ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida yotgan u yoki boshqa materialni chuqur mantiqiy taxlil qilishga asoslangan.

Muammoli vazifa hayotdan olingan dalillarni maruza va vaziyatni o'rganishdan alohida insonlar yoki ishlab chiqarish korxonalarning manfaatlarini ko'zlashdan iborat bo'lishi mumkin.

Topshiriq usuli.

Topshiriq usulining ijobiy tomoni shundaki, unda o'quvchilar uchun yakka holda emas, guruh bilan birgalikda o'tilgan materialni qayta ko'rib chiqib, esga tushirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bunda o'quvchilar bilmagan yoki yoddan chiqargan bilimlarini bir-biridan o'rganadilar. Mustaqil bajarishga mo'ljallangan topshiriqlar o'quv semestri davomida o'quvchilar tomonidan amalga oshirib borilsa o'quvchilar materialni yodlariga tushirib, yakuniy nazoratlarni yaxshi topshirishlariga yordam beradi.

2.3. Modulli ta'lim texnologiyasi.

Modulli ta'lim texnologiyasi-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidir. U ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'quv jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning bilish va tarbiyaviy soxalarini rivojlantirish, o'rganish faoliyatini boshqarish bilan birga o'z-o'zini boshqarish kabilarga keng imkoniyatlar yaratish bilan ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, unda ta'lim mazmuni bilan uni o'qitish texnologiyasi chambarchas bog'langan integratsiyaon jarayon bo'lib, u quyidagi texnologiyalar majmui orqali amalga oshadi: muammo algoritimli, dasturlashtirilgan, aqliy faoliyatning bosqichhama-bosqichh shakllantirish, to'liq o'zlashhtirish va boshqalar.

Modulli ta'lim dunyo tajribasida qo'llanilib kelayotgan (Buyuk Britaniya, Gollandiya, AQSH, Rossiya) ta'limning samarali shaklidir. Lekin uning didaktik ta'minoti to'liq ishlab chiqilmaganligi sababli keng tarqalmayapti.

P.Modulli texnologiya umumlashgan universal tizim bo'lib, ta'lim-trabiya maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan barcha optimal va mos texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Bu texnologiya quyidagi g'oya, printsiplari va qoidalarini amalga oshiradi:

1. O'quv materialini, uni o'zlashtirish uchun taklif va topshiriqlar bilan birgalikda yirik blokni qilib tashkil etish.

2. O'quvchilar tomonidan o'quv materialini mustaqil ishlab chiqilishini mo'ljallash.

3. O'quv faoliyati algoritmi (modul deb nom olgan o'quv metodik kompleks) va dastur (o'quv ishining ketma-ket topshiriqlari va bosqichlari) yordamida o'quvchilar faoliyatini boshqarish.

4. O'qituvchi metodik tizimning ochiqligi (o'quvchilarga darsda bajariladigan ishlar rejasini va materialni o'rganish dasturi oldindan aytib o'tiladi).

5. Materialni o'zlashtirish darajasi, uni o'rganish shakli, joyi va tempini o'quvchilar o'zlari tanlab olishlari mumkin.

6. Uyga vazifa ixtiyoriy.

7. Har bir o'quvchining samarali bilim olish faoliyati uchun sharoit yaratish.

8. Nazorat mezonlari va mazmuniga o'quvchilarni perspektiv yo'naltirish.

9. O'quvchiga va uning qobiliyatiga ishonch ko'rsatish.

10. Darsda, ish jarayonida erkin o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro yordam.

11. Baxosiz operativ nazorat.

12. Yakuniy nazoratga qarab natijani baxolash joriy natijalarning o'rta arifmetik xisobi emas.

13. Har bir o'quvchiga yakuniy natijani yaxshilash imkoniyatini berish.

14. Ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini amalga oshirish.

15. O'quv jarayoni samaradorligini baxolashda o'quvchilar ishtirok etadi.

1. Modul lotincha «modulus» so'zidan olingan bo'lib me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Ta'limda modul o'rganilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

O'quvchilarning o'qishini tashkil etish vositasi sifatida modullar tayyorlashning har xil usullari mavjud.

Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv materialini blokni o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi.

Modul qo'llanmasi tarkibida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks topadi:

- modul o'qish natijasida sifat xarakteristikalariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan kompleks maqsad.

- ta'lim standartida berilgan predmet "o'quv elementlarida" maqsadning oydinlashishi.

- modulni o'rganishning texnologik usullari bo'yicha dastur va tavsiyalar.

- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashhtirish darajalari etalon va mezon bo'yicha maqsadlar oydinlashhishi.

- o'z-o'zini nazoratni tashkil etish bo'yicha etalonlar.

Bo'limni o'rganishdan oldin o'quvchilar bilan materialni o'rganish istiqbol rejasini muhokama qilinadi, mavular ketma-ketligi, har bir mavzu bo'yicha darslar soni, dars shakllarini aniqlanadi.

Har bir o'quvchi individual ish uchun modul qo'llanmasi yoki modulga kirgan didaktik materiallar paketini oladi, unga quyidagilar kiradi:

-blok mazmuni konspekti;

-o'quv elementlarini (ta'lim standartining mazmun birliklari) o'qish dasturi;

-joriy va o'z-o'zini nazorat qilish uchun daraja mezonlarini o'z ichiga olgan "sinov varag'i" bilan "nazorat ishi";

-o'z-o'zini nazorat qilish va mustaxkamlash kartochkasi;

-yakuniy nazorat ishi namuna yoki sinov uchun savol va topshiriqlar;

-masala echimi va javoblari bo'lgan o'z-o'zini nazorat qilish uchun "echimlar";

-erkin tanlov uchun, ijodiy xarakterga ega bo'lgan topshiriqlar.

Modul qo'llanmasidan o'quvchi uyida yoki sinfda o'zi mustaqil foydalanadi: ba'zi materiallar ustida uyida qo'shimcha oldinga o'tib ketadi.

Uyga vazifa majburiy emas.

O'quvchiga modul bilan ishlash metodikasini tushuntirib, eslatib turish lozim.

2. Blok mazmunini o'rganishni asosiy konspektidan foydalanib ma'ruzadan boshlash lozim.

Boshidan berilgan bo'lim materialini o'rganishga undovchi muammoli vaziyat xosil qilinadi. So'ng materialni umumiy tarkibi, asosiy tushuncha, mantiqiy bog'lanishlar, qiyin joylar tushuntiriladi. Bunda o'qituvchilar o'zlaridagi asosiy konspekt bo'yicha o'tilayotgan darsni kuzatadilar.

3.Modul dasturi asosida o'quvchilar materialni mustaqil ravishda darsliklardan foydalanilgan holda batafsil o'rganadilar. Qiyinchiliklar tug'ulganda ular o'qituvchi yordami murojaat qilishhadi. Odatdagi qiyinchiliklarni xattaxta oldida muxokama qilinadi.

4.materialni mustaxkamlash «nazorat ishi» kartochkalardan foydalanilgan xolda bajariladi. Bu ish qiziqarli o'tishi uchun jiftlar va guruhlar usulida foydalanishh mumkin. Bunda mashg'ulot o'zaro nazorat va o'qitish bilan boyitiladi. Baxo quyilmaydi. (to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilgan ish xisobga olinadi).

5. Baho faqat modulni to'liq o'rganilganidan so'ng yakuniy qilib chiqariladi.

Mikromodul uchun baxoni joriy sinov va topshiriqlar natijasiga ko'ra qo'yiladi. "Tekshiruv ishini" o'quvchi tayyorgarligiga ko'ra topshiriq darajasini o'zi tanlaydi: majburiy topshiriqlarni tanlansa (d-belgili) faqat 3 ball, undan qiyinroq'iga (Yo) 4 ball, mustaqil fikrlashni talab qiladiganlarini tanlansa 5 ball olishi mumkin.

Nazorat metodikasini an'anaviy (og'zaki javob, masala echish, yozma testlar) yoki noa'nnaviy (hammadan oldin modulni a'lo topshirgan o'quvchilar boshqalardan nazorat olishga xaqi bor) bo'lishi mumkin.

6. Yakuniy nazorat ishidan oldin umumlashtiruvchi dars o'tiladi. U har xil shaklda bo'lishi mumkin. Bu quyidagicha bo'lishi mumkin:

sinf guruhlariga bo'linib, har bir guruh blokning bir qismi bo'yicha olgan bilimlarni tizimga solib uning vakili boshqalarga taqdimot qiladi. Bu ish anjuman shaklida o'tib o'quvchilar ma'ruza va referatlar tayyorlaydilar.

7. Yakuni baxo yakuniy nazorat ishi bo'yicha sinov mezonlari asosida chiqariladi.

Bahoga rozi bo'lmagan o'quvchi qayta topshirishga (1 marta) xaqi bor. Bunda baxoni tushishiga sabab bo'lgan qism kengaytirilgan holda topshiriladi.

-bu texnologiyani qo'llash natijasi o'quvchilarning o'qishga qiziqish va faolligi oshadi.

2.3. «Milliy ko'ylak tikish ketma-ketligini tuzish, mayda bo'laklarni tayyorlash» mavzusi bo'yicha amaliy mahsg'ulot ishlanmasi

I. MODUL RAQAMI: 2

II. MAVZU: «Milliy ko'ylak tikish ketma-ketligini tuzish, mayda bo'laklarni tayyorlash».

III. MAQSAD: Milliy ko'ylak mayda bo'laklarini tikish ko'nikmalarini shakllantirish.

IV. O'QUV SOATLARI: 6 soat (240 daqiqa).

V. MODULNI O'RGANISH JARAYONIDA EGALLANADIGAN AMALIY KO'NIKMALAR.


- yoqani tayyorlab olish.
- koketkani tayyorlab olish.
- yeng tayyorlash.
- etak qismiga ishlov berish.
- lozim pastki va yuqori qirqimlariga ishlov berish.

VI. MODULNI O'RGANISH DAVOMIDA SHAKLLANADIGAN NAZARIY BILIMLAR:

- yoqani tikish texnologiyasi;
- kaketkani tikish texnologiyasi;
- eng tikish texnologiyasi;
- etak qismini tikish texnologiyasi;
- lozim pastki va yuqori qirqimlarini tikish texnologiyasi.


VII. MAVZU DOIRASIDAGI ASOSIY MA'LUMOTLAR:


Ayollar ko'ylagining yoqalari konstruktiv jihatdan yoqalarga ajratiladi. Gazlama turiga qarab ularga yelimli qotirma qo'yiladi. Ostki yoqaning teskari tomoniga qotirma materialni kleyli tomonini, chetki qirqimlariga 0,5-0,7 sm. yetkazmay namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi. Ostki yoqaga kerakli shakl berish uchun qotirma tomonidan yoqa o'rtasidan boshlab qotirma va qaytarma qirqimlari bo'ylab oldin bir tomonga keyin ikkinchi tomonga ostki yoqa cho'zib dazmollanadi. Buning uchun ostki yoqa ko'tarmasi qirqimini ishlovchi tomonga qaratib qo'yib, namlab ko'tarmaning va qaytarmaning qirqimlari tortibroq turiladi va yoqa uchlarini ishlovchidan chetga chiqarib turiladi. Ostki yoqani andozaga binoan aniqlab bo'r bilan chiziladi va kerakmas joylarini qirqib tekislanadi. Ostki yoqa shakliga mo'ljallab, har bir ustki yoqa alohida, teskari tomondan aniqlanadi va qirqib tekislanadi. Ostki yoqa o'ngi tomonini yuqoriga va uning ustiga ustki yoqa o'ngini pastga qaratib qo'yiladi va qirqimlarini ostki yoqa qirqimlari bilan tekislanadi. Uchala tomoniga 0,7 sm. kenglikda ag'darma chok bilan tikilinadi. Tikilgan yoqani burchaklaridan tikilgan chokka 0,1-0,2 sm. yetkazmay kesib chiqamiz. Yoqani o'ngiga ag'darib, burchaklarini to'g'rilab ustki yoqadan 1-2 mm kenglikda kant chiqarib, ostki yoqa tomonidan yoqani ziya ko'kalanadi va dazmollanadi. Yoqani chetki qirqimlarini 0,5 sm kenglikda bezak va bahyaqator yurgiziladi.



Ustki voqa

1





1-rasm. Milliy ko'ylak va lozimning chizmati ko'rinishi

1-Yoqaga ishlov berish; 2-Yelkaga ishlov berish; 3-Yengga ishlov berish; 4-Etakning yon boshiga ishlov berish; 5-Etakning yuqori qismiga ishlov berish; 6-Manjetga ishlov berish.

Oldi va orqa kaketkani biriktirma chok bilan biriktirayotganda kaketka oldi bo'lak avrasiga ular o'ngini ichkariga qaratib, qirqimlarini to'g'rilab ulanadi. Ustma-ust qo'yib yelka qirqimlarini chetga 0,7-1 sm biriktirib tiqiladi. Chok yorib dazmollanadi. Astarni oldi va orqa kaketkalar o'ngini ichkariga qaratib ustma-ust qo'yib yelka qirqimlarini chetiga 0,7-1 sm ga biriktirib tiqiladi. Tikilgan yelka choklari yorib dazmollanadi.

Yeng qirqimlarini o'ngini ichkariga qaratib qo'yiladi va teskari tomonidan 1 sm chok xaqqi hisobida tiqiladi. Tikilgan choklar gazlamaning teskari tomoniga namlangan mato bilan dazmollanadi. Dazmol qilingan yeng qirqimlarini maxsus mashina yordamida yo'rmlanadi.

Etak qismini tikishda orqa va oldi bo'laklar etak qismlarini o'ngini ichkariga qaratib qo'yib yon qirqimlari chetidan 1-1,5 sm tiqiladi. Tikilgan yon qirqimlari orqa bo'lakka qaratib dazmollanadi. Tikib dazmol qilingan yon qirqimlari maxsus mashina yordamida yo'rmlanadi. Orqa va old yuqori qirqim chetlaridan 0,5 sm ichkarida birinchi bahyaqator yuritiladi. Bahyaqatordan 0,5 sm ichkaridan ikkinchi bahyaqator yuritiladi. Ikkala bahyaqatorlarning ostki iplari tortiladi va burmalar tekislanadi.

Lozimni pastki qirqimida manjetni tikishda, manjetni o'rtasidan bukish chizig'i bo'ylab bukib, ostki manjet tomonidan dazmollanadi. Ostki manjet teskari tomonidan dublirinning kley tomonini qo'yib namlab isitib ishlov beriladi, bunda qotirma qirqimlari gazdlama chok haqlariga 2-3 mm kirib turish kerak. Gazlamani o'ngini ichkari tomonga bukib, manjet qirqimlari chetidan 0,5-0,7 sm ichkaridan biriktirib tiqiladi. Tikilgan chok qirqimi yorib dazmollanadi. Tayyor manjet ostki manjet tomonidan namlab isitib ishlov beriladi.

VIII. KERAKLI O'QUV-JIHOZ, ASBOB-USKUNA VA ASHYOLAR:








- tikuv mashinalari: 1022 kl, Pfaff zinger; 97-kl; 51-kl;
- dazmol;
- milliy ko'ylak detallaridan tikma namunalar;







Bitta o'quvchi uchun:








- yo'l-yo'riq texnologik xaritasi;
- qo'l ishlari asboblarining 1 ta to'plami, bo'r.
- W 40; W 80-iplardan 1 ta g'altak; turli raqamli ignalardan 1 ta to'plam;
- qaychi 1 ta; santimetr lenta 1 ta; angishvona 1 ta; dukcha 1 ta;
- yoqa manjet, yeng, koketka uchun yordamchi andozalar.
- 100x200 sm mayda bo'laklar ishlab chiqish uchun gazlama



IX. «MILLIY KO'YLAK TIKISH KETMA-KETLIGINI MAYDA BO'LAKLARNI TAYYORLASH» BO'YICHA TEXNOLOGIK XARITA

Texnologiya asosida faoliyat turlari	Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I	II	III	IV

I. Mayda bo'laklarga ishlov berish A) yoqani tikish			
1. Ostki yoqaga yelimli qotirmani yopish-tirish	Dazmol		Ostki yoqaning teskari tomoniga qotirmani kleyli tomonini, chetki qirqimlariga 0.5-0.7 sm yetkazmay namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi.
2. Yoqani tikish	U.M. universal mashina		Ostki yoqani ustki yoqani o'ngini o'ngiga qo'yib uchala tomoniga 0.7 sm kenglikda ag'darma chok bilan tiqiladi.
3. Yoqani uchlarini kesish.	Qaychi		Tikilgan yoqani burchaklaridan tikilgan chokka 0.1-0.2 sm yetkazmay kesib chiqiladi.
4. Yoqani o'ngiga ag'darish	Qo'lda		Tikilgan yoqani o'ngiga ag'darib, burchaklarini dukcha yordamida chiqaraladi.
5. Ziy chi-qarib dazmollash.	Dazmol		Ustki yoqa tomoniga 0.1-0.2 sm ziy chiqarib dazmol qilinadi.
B) Yengni tikish			
1. Yeng qirqimlarini ulash	Universal mashina		Yeng qirqimlarining o'ngi ichkariga qaratib qo'yiladi va teskari tomonidan 1 sm chok haqqi hisobida tiqiladi.
2. Yeng chokini dazmollash	Dazmol		Tikilgan choklar gazlamaning teskari tomoniga namlangan mato orqali dazmollanadi.

3. Yeng qirqimlarini yo'rmalash	Maxsus mashina		Dazmol qilingan yeng qirqimlarni maxsus mashina yordamida yo'rg'alanadi.
4. Yeng o'miziga burma berish	Universal mashina		Yeng o'miz qirqimlaridan 0,5 sm ichkarida 1 bahyaqator yurtiladi. Bu bahyaqatordan 0,5 sm ichkaridan 2 bahyaqator tiqiladi. Ikkala bahyaqatorlar va burmalar tekislanadi.
V) kaketkani tikish			
1. Asos kaketkani tayyorlash	Universal mashina		Oldi va orqa kaketkalar o'ngini ichkariga qaratib ustma ust qo'yib yelka qirqimlarini chetga 0.7-1 sm ga biriktirib tiqiladi.
2. Tikilgan yelka choklarini dazmollash.	Dazmol		Tikilgan yelka choklarni yorib dazmol qilinadi.
3. Astar kaketkani tayyorlash.	Universal mashina.		Oldi va orqa kaketkalarini o'ngini ichkariga qaratib usma ust qo'yib yelka qirqimlari chetiga 0,7-1sm ga biriktirib tiqiladi.
4. Tikilgan yelka choklarni dazmollash.	Dazmol.		Tikilgan yelka choklarini yorib dazmol qilinadi.
II. Etak qismini tikish			

1. Etak qismining yon qirqimlarini tikish.	Universal mashina.		Orqa va oldi bo'lak etak qismlarni o'ngini ichkariga qaratib qo'yib yon qirqimlari chetidan 1-1,5 sm tiqiladi.
2. Tikilgan yonqirqimlarni dazmollash.	Dazmol.		Tikilgan yon qirqimlari (orqa bo'lakka) qaratib dazmol qilinadi.
3. Tikilgan maxsus qirqimlarini yo'rmalash	Maxsus mashina		Tikib, dazmol qilingan yon qirqimlari maxsus mashina yordamida yo'rmanadi.
4. Etak qismining yuqori qirqimini burtaga yig'ish.	Universal mashina		Orqa va old yuqori qirqim chetlaridan 0.5sm ichkarida 1-bahyaqator yuritiladi. Bahyaqatordan 0.5 sm ichkaridan 2-bahyaqator yuritiladi, 2la bahyaqatorlarning ostki iplari tortiladi va burmalar tekislanadi.
III. Manjetni tikish			
1. Manjetni bukish	Dazmol		Manjetni o'rtasidan bukish chizig'i bo'ylab bukib ostki manjet tomondan dazmollanadi.
2. Manjetga qotirma yopishtirish	Dazmol		Ostki manjet teskari tomonidan dubnirinning kalit tomonini qo'yib namlab isitib ishlov beriladi, bunda qotirma qirqimlari, gazlama chok haqlariga 2-3 mm kirib turish kerak.
3. Manjetni tikish	Universal mashina		Gazlamani o'ngini ichkari tomonga bukib, manjet qirqimlari chetidan 0.5-0.7 sm ichkaridan biriktirib tiqiladi.

4. Manjet chokini dazmollash	Dazmol		Tikilgan chok qirqimi yorib dazmollanadi.
5. Manjetni o'ngiga ag'darish	Qo'lda bajarish		Tayyor manjet ostki manjet tomonidan namlab isitib ishlov beriladi.

X. O'QUV AMALIYOTINI O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

O'quv amaliyotini o'tkazish bosqichlari	Faoliyat turlari	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Kirish. <i>5 daqiqa</i>	Mavzuni e'lon qiladi va ichidagi vazifani tushuntiradi. Ishning ketma-ketligi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglab, eshitadi.
2-bosqich: O'quv materialini bayon etish. <i>10 daqiqa</i>	Milliy ko'ylak, lozim tikishda uchratiladigan mayda bo'lakchalar, ularga texnologik ishlov berish jarayonini tushuntiradi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligini bayon qiladi.	Tinglab, eshitadi.
3-bosqich. Kirish yo'riqnomasi. <i>50 daqiqa.</i>	Talabalarni asosiy mehnat havfsizligi qoidalari bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish sanitariyasi va elektr, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni tushuntiradi. O'quvchilar yo'llanma xaritasi bilan ta'minlanadi. Yoqa, koketka, yeng, etak manjetga ishlov berishni amalda ko'rsatadi. Har bir ish joyda qanday ish olib borilishi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi, vazifani bajarish uchun vaqt belgilaydi.	Usta bajarayotgan ishni diqqat bilan kuzatadi.
4-bosqich. Amaliy ish.	Milliy ko'ylakda mayda bo'laklariga ishlov berishda texnologik jarayon ketma-	Berilgan topshiriqning maqsad va vazifalari yozib olinadi.

145 daqiqa.	ketligining to'g'ri bajarilishi -yoqaga ishlov berish; -koketkaga ishlov berish; -etak qismiga ishlov berish; -yengga ishlov berish; -lozim manjetiga ishlov berish.	Har bir ish joyida berilgan yo'l- yo'riq xaritasini o'rganadilar va amaliy bajaradilar. Berilgan vaqtga qarab ketma-ketlik asosida kiyim bo'laklariga ishlov beradilar. Vazifani mustaqil bajaradilar.
5-bosqich. Baholash, tahlil qilish va yakunlash 30 min.	Har bir o'quvchining bajargan ishlarini qabul qiladi va yakun yasaydi. O'quvchilarni baholash uchun test savollarini beradi. baholash natijalarini e'lon qiladi. Bajarilgan ishlardagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatadi. Uyga vazifa va uni bajarish uchun tavsiyalar ko'rsatadi.	Bajargan amaliy ishini topshiradilar, test savollariga javob beradilar, baho natijalarini eshitadilar, tahlil qiladilar. Uy vazifasini daftarga yozib oladilar.

XI. O'QUVCHILARNING BILIMLARINI TEKSHIRISH UCHUN NAMUNAVIY TEST SAVOLLARI:

1. Ostki yoqa va ustki yoqa qanday chok bilan tiqiladi?

- A) ziy, bostirma;
- B) bostirma;
- C) ag'darma, biriktirma;
- D) yo'rmalab;
- E) ziy, biriktirma.

2. Qotirma qaysi yoqaga yopishtiriladi?

- A) ostki yoqaga;
- B) ustki yoqaga;
- C) ostki va ustki yoqaga.
- D) ustki yoqani uchlariga.
- E) ostki yoqani uchlariga.

3. Koketka nechta bo'lakdan iborat bo'lishi mumkin?

- A) 4 ta avra, 3 ta astar;
- B) 2 ta avra, 2 ta astar;
- C) 2 ta avra, 4 ta astar;
- D) 3 ta avra, 2 ta astar;
- E) 2 ta avra, 1 astar.

4. Koketgadagi yelka choklari namlab isitib ishlov berishning qaysi turidan foydalaniladi?

- A) bostirib dazmollanadi;
- B) bir tomonga bukib dazmollanadi;
- C) ag'darib dazmollanadi;
- D) yorib dazmollanadi;
- E) ag'darib bostirib dazmollanadi.

5. Milliy kiyimlarda kaketkalar qanday tekshiriladi?

- A) o'zi to'g'ri bo'ladi;
- B) andoza yordamida tekislab kesiladi;
- C) to'g'rilab kesib tashlanadi;
- D) old va ort bo'lagi o'lchanadi;
- E) old bo'lagiga moslab kesib tashlanadi.

6. Yeng qirqimi qanday ishlanadi?

- A) bostirib tiqiladi;
- B) ag'darma chok bilan tiqiladi;
- C) biriktirma va ag'darma chok bilan tiqiladi;
- D) old va ort bo'lagini biriktirib tiqiladi;
- E) old bo'lagi tiqiladi.

7. Milliy ko'ylak etak qismining yuqori qirqimiga qanday ishlov beriladi?

- A) ag'darib tiqiladi;
- B) bostirib tiqiladi;
- C) ziy tiqiladi;
- D) biriktirib tiqiladi;
- E) ikkita bahyaqator tiqiladi.

8. Milliy ko'ylak etak qismining yon qirqimiga qanday ishlov beriladi?

- A) 0,5-0,7 sm biriktirib tiqiladi;
- B) 2-3 mm bezak berib tiqiladi;
- C) 1-2 mm bezak berib tiqiladi;
- D) 1 sm biriktirib tiqiladi;
- E) 0,4-0,6 sm biriktirib tiqiladi.

9. Lozim pastki qismiga qanday ishlov berish mumkin?

- A) manjet, mag'iz, bezaklar;
- B) yo'rmalab, bezak, munchoq;
- C) ag'darib, bostirib, qotirma yopishtirib;
- D) Manjet, yo'rmalab, mag'iz qilib;
- E) Ag'darib, qotirma yopishtirib, bezak berib.

10. Yoqa tikishda qanday nuqson uchrashi mumkin?

- A) ostki yoqadan ustki yoqada noto'g'ri kant hosil bo'lsa;
- B) ostki yoqani yoqa o'miziga biriktirib tikishda;
- C) Yoqani biriktirishda 1 sm ga tikilsa;
- D) Ostki yoqa katta bo'lib ketsa;
- E) Ostki yoqa va ustki yoqada yelimli qotirma bo'lmasa.

XII. O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH MEZONLARI

[illegible]

[illegible]

Izoh:

1) Topshiriqning bajarilishi besh balli tizim asosida baholanadi. Bunda ushbu topshiriqning tarkibiga kiruvchi barcha faoliyat turlari inobatga olinib, ularning har biriga baho berilishi shart.

Topshiriq bo'yicha o'quvchining yakuniy bahosi esa har bir faoliyat turi bo'yicha olingan baholarning jami topilib, ushbu faoliyat turlarining soniga bo'linadi.

2) Qoniqarsiz baho olgan o'quvchilar ma'muriyat ko'rsatgan muddatda mashqlarni qayta topshiradi.

Imzo _____

Sana _____

TEST JAVOBLAR (kalit)

[illegible]

2.5. «MILLIY KO'YLAKNI YIG'ISH» MAVZUSI BO'YICHA AMALIY MAHSG'ULOT ISHLANMASI

I. MODUL RAQAMI: 3

II. MAVZU: «Milliy ko'ylakni yig'ish».

III. MAQSAD: Milliy ko'ylakni yig'ib tikish ko'nikmalarini shakllantirish.

IV. O'QUV SOATLARI: 6 soat (240 daqiqa).

**V. MODULNI O'RGANISH JARAYONIDA EGALLANADIGAN AMALIY
KO'NIKMALAR;**

- yoqani yoqa o'miziga o'rnatish;
- etak yuqori qirqimini koketkaga ulash;
- yengni yeng o'miziga o'rnatish;
- yeng uchini va etakni bukish;
- oxirgi ishlov berish NIIB.

**VI. MODULNI O'RGANISH DAVOMIDA SHAKLLANADIGAN NAZARIY
BILIMLAR;**

- yoqani yoqa o'miziga o'rnatib tikish texnologiyasi;
- etak yuqori qirqimini koketkaga ulash texnologiyasi;
- yengni yengni o'miziga o'rnatib tikish texnologiyasi;
- yeng uchini va etakni bukish usullari;
- oxirgi ishlov berish (NIIB) texnologiyasi.


VII. MAVZU DOIRASIDAGI ASOSIY MA'LUMOTLAR:

2-modulda «Milliy ko'ylakning bo'laklariga ishlov berilgan» dan keyin, yig'ish, ishlari boshlanadi. Avval adib-astar koketkaga biriktirib, avra va astar o'ngini-o'ngiga qo'yib, bir yo'la yoqani, yoqa o'miziga o'tkaziladi. Yoqani yoqa o'miziga o'rnatilganda kertim berishni unutmaslik kerak. Chunki kertim bergandan so'ng yoqa koketkada yaxshi yotadi. Kaketka o'ngiga ag'dariladi, bo'rt ziylari qiya qirma qaviqlar bilan ko'lanadi va dazmollanadi. Yoqaga o'rnatilgan kaketka yordamchi andoza yordamida tekshirib olinadi, ortiqcha joylari qirqib tashlanadi. Kaketka etakga yaxshi o'rnatilishi uchun uning avra va astar kaketkalarining yelka, kaketka ochiq qirqimlari ko'klanadi.

Kaketkaning ochiq qirqimlari etakning yuqori ya'ni burma terilgan qirqimiga ulanadi. Koketkaning etakka ulangan chokini maxsus mashinalarda yo'rmalanadi va yotqizib dazmollanadi.

Tayyorlab olingan ko'ylakni yeng o'miziga yeng o'rnatiladi. Yengni o'rnatayotganda to'g'nag'ichlar yordamida kertimlarini to'g'rilab o'mizga to'g'nab chiqiladi. Avval ko'klab tiqiladi so'ng mashina chokida biriktiriladi. Biriktirilgan choklar yo'rmalanadi, dazmollanadi.

Etak va yeng uchlari bukib mahkamlanadi. Oxirgi ishlov beriladi va NII bajariladi.



1-rasm. Milliy ko'ylak bo'laklarini yig'ish

- 1-yoqani-yoqa o'rnash; 2-kaketkani etak yuqori ochiq qirqimiga ulash;
 3-yengni-yeng o'rnash; 4-yengni yashirin qaviq bilan tikish;
 5-etakni yashirin qaviq bilan tikish.





VIII.KERAKLI O'QUV-JIHOZ, ASBOB-USKUNA VA ASHYOLAR:






- tikuv mashinalari: 1022 kl, maxsus mashina 51 kl;
- dazmol, qolip;
- ayollar milliy ko'ylagidan tikma namunalar;




Bitta o'quvchi uchun:

- yo'l-yo'riq texnologik xarita;
- qo'l ishlari asboblari 1 ta to'plam, dukcha;
- W 50: W80 – iplardan 1 ta g'altak, turli nomerli iplardan 1 ta to'plam, 1 ta qaychi, 1 ta sm. lenta;
- koketkarni tekshirish uchun yordamchi andoza;
- bo'r, to'g'nog'ichlar, angishvona.

IX. «MILLIY KO'YLAKNI YIG'ISH» BO'YICHA TEXNOLOGIK XARITA

Texnologiya asosida faoliyat turlari	Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar	Chizma	Standart asosida operatsiyani bajarish tartibi
I	II	III	IV
1. Adibni koket-kaga ag'darma chok bilan biriktirish va yoqani bir yo'la yoqa o'miziga o'tqazib koketka astarini abruga biriktirib tikish.	Universal mashina.		Ostki yoqani asosiy bo'lak o'ngiga qaratib qo'yiladi ostki yoqa qirqimini yoqa o'mizi qirqimiga to'g'rilab ustki yoqa qirqimini asosiy bo'lak qirqimidan ishlov haqqi kengligicha chiqarib qo'yiladi. Yoqa ustiga, old bo'lak bort ishlov haqqi o'ngini ichkariga qaratib buqiladi yoki alohida bichilgan adibni o'ngini pastga qaratib qo'yiladi va yoqa asosiy bo'lak tomondan ag'darma chok bilan tiqiladi.
2. Yoqani yoqa o'miziga ulash chokida 2 sm oraliqda kertim berish.	Qaychi.		Ulangan chokning har 2 sm oraliqda tikilgan chokka 0,1 sm yotkazman kertim beriladi. 159 bet 1 b.
3. Koketkani bort uchlaridagi chok haqqini kertish va koketkani o'ngiga ag'darish.	Qaychi, dukcha.		Koketkani bort uchlaridagi chok haqqini tikilgan chokka 0,1 sm yetkazmay kesiladi va o'ngiga ag'darib bort uchlari dukcha yordamida chiqariladi va bort bilan yoqa to'g'rilanadi.
4. Koketkadagi bort ziyini va bir yo'la yoqani ulash chokini ko'klash.	Ip, igna, angishvona.		Koketkadagi bort ziyini va bir yo'la yoqani ulash chokini to'g'ri sirma qaviq bilan ko'klanadi.
5. Koketkadagi bort ziyini va yoqani ulash chokini dazmollash.	Dazmol, mato.		Tikib ko'klangan bort ziyini va yoqani ulash choki maxsus qolipli yostiqla yordamida dazmollanadi.

6. Koketka astari va avrasini yelka chokida, qo'lda ko'klab biriktirish.	Ip, igna, angishvona.		Tikib tayyorlangan koketka astari va avrasini yelka choklari ustiga qo'yib, to'g'rilanib qo'lda ko'klab, biriktirib chiqiladi.
7. Old koketkani astari bilan ochiq qirqim bo'yicha ko'klash.	Ip, igna, angishvona.		Old bo'lak astar etaki bilan astar (etak) koketka ni o'ngini o'ngiga qaratib qirqimlarini to'g'rilab qo'yib teskari tomondan 1 sm chok bilan biriktirib tiqiladi.
8. Ort koketkani astari bilan ochiq qirqimi bo'yicha ko'klash.	Ip, igna, angishvona.		Ort koketka astari bilan ustma ust qo'yib o'ngi tomonidan ochiq qirqimli ko'klanadi.
9. Old bo'lak etaki yuqori qirqimiga koketkani biriktirib tikish.	Ip, igna, angishvona, universal mashina.		Old bo'lak etaki o'miziga old koketka o'ngini qo'yib, qirqimlari to'g'rilanib, biriktirib 1 sm ga tiqiladi.
10. Ort bo'lak etakiga koketkani biriktirib tikish.	Ip, igna, angishvona, universal mashina.		Ort bo'lak etaki o'ngiga ort koketka qirqimlari to'g'rilanib, biriktirma chok bilan tiqiladi. Chok haqqi - 1 sm.
11. Old va ort etaklarni koketkaga ulangan chokini yo'rmalash.	Maxsus mashina.		Old va ort etaklarni koketka bilan ulangan choki maxsus yo'rmalash mashinalarida yo'rmalanadi.
12. Old va ort etaklarni koketkaga ulangan chokni yotqizib dazmollash.	Dazmol, qolip.		Ulangan choklar yuqori tomonga yotqizib dazmollanadi.
13. Yengni yeng o'miziga o'tqazish.	Ip, igna, angishvona,		Yengni yeng o'miziga to'g'ri o'tkazish uchun uni oldin maxsus to'g'nog'ichlar bilan kertimlarni to'g'rilab o'mizga to'g'nab chiqiladi. Keyin yengni o'mizga ko'klanayotganda ignalar olib tashlanadi. Yengni ko'klab o'tkazish uchun yengni asosiy bo'lak yeng o'mizi ichiga o'ngini ichkariga qaratib qo'yiladi va yeng tomondan sirma qaviqlar bilan ko'klanadi. Qaviq yirikligi 0,5 sm. Yengdagi eng ko'psalqi qiyama qismida bo'lib, qolgan joyida deyarli salqi hosil qilinmay ko'klab o'tkaziladi. Ko'klash chokining

			kengligi 0,7-0,8 sm bo'ladi.
14. Yengni o'mizga ko'klagan chokni dazmollash.	Dazmol.		Yeng ko'klab o'tkazilgandan keyin hosil qilingan salqilar dazmollab kirishtiriladi.
15. Yengni o'mizga biriktirish.	Universal mashina.		Yengni mashinada o'tqazishda bahyaqator yeng ko'klagan qaviqlardan 0,1-0,2 sm oraliqda yuritiladi.
16. Yengni o'mizga biriktirgan chokni yo'rmash.	Maxsus mashina.		Yeng yotqizilgan chok qirqimlari maxsus mashinada yo'rmlanadi.
17. Yengni o'mizga yo'rmalangan chokni dazmollash.	Dazmol, qolip.		Yeng yo'rmalangandan keyin hosil qilingan solqilar dazmollab kiritiladi.
18. Yeng uchi va ko'ylak etakini bukib tikish.	Igna, ip, angishvona.		Yeng uchi va ko'ylak etakini ko'rinmas qaviqqator bilan mahkamlab tiqiladi.
19. Oxirgi ishlov berish. (NIIB).	Dazmol, mato, qaychi.		Ko'ylakni ortiqcha iplardan tozalanadi, yeng uchi va ko'ylakni etak old va orqa bo'laklari dazmollanadi.





X. O'QUV AMALIYOTINI O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

O'quv amaliyotini o'tkazish bosqichlari	Faoliyat turlari	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Kirish <i>5 daqiqa</i>	Mavzuni e'lon qiladi. Mavzu bo'yicha vazifalarni tushuntiradi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligi bilan tanishtiradi.	Eshitadi.
2-bosqich. O'quv materialini bayon qiladi. <i>20 daqiqa.</i>	Mazkur mavzu bo'yicha o'quv materialini bayon qiladi. O'quvchilarning nazariy bilimlarini test savollari bilan tekshiradi.	Eshitadi, kuzatadi, test savollariga javob beradi.
3-bosqich. Kirish yo'riqnomasi. <i>40 daqiqa</i>	O'quvchilarni mehnat xavfsizligi qoidalarini bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish sanitariyasi va elektr, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni tushuntiradi. O'quvchilar texnologik xarita bilan ta'minlanadi. Milliy ko'ylak bo'laklarini yig'ib tikish, oxirgi ishlov berish va NIIB ishlarini amalda ko'rsatadi. Bular -Yoqani yoqa o'miziga o'rnatib tikish; -Etak yuqori qirqimiga kaketskani ulash; -Yengni yeng o'miziga o'rnatish; -Yeng va etak qirqimiga ishlov berish; -Oxirgi ishlov berish va NIIB. Har bir ish joyida qanday ish olib borish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Vazifani bajarish uchun vaqt belgilaydi.	Usta bajarayotgan ishni diqqat bilan kuzatadi.
4-bosqich: Amaliy ish <i>155 daqiqa.</i>	O'quvchilarning bajarayotgan ishlarini tekshirish uchun ish o'rinlarini aylanib chiqadi va joriy yo'l-yo'riq ko'rsatadi.	Mayda ko'ylakni mayda bo'laklarini yig'ib tikadi. -Yoqani yoqa o'miziga o'rnatib tikish; -Etak yuqori qirqimiga kaketskani ulash; -Yengni yeng o'miziga o'rnatish; -Yeng va etak qirqimiga ishlov berish; -Oxirgi ishlov berish va NIIB.
5-bosqich: Baholash, tahlil qilish va yakunlash. <i>20 daqiqa.</i>	Har bir o'quvchining bajargan ishlarini qabul qiladi. Bajarilgan ishlardagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatadi. Baholarni e'lon qiladi. Uyga vazifa va uni bajarish uchun tavsiyalar beradi. Ish o'rnini qabul qilib oladi.	Bajargan ishni topshiradi. Usta bergan ko'rsatmalarni va baholarni eshitadi. Uy vazifani daftarga yozib oladi. Ish o'rnini topshiradi.

XI. O'QUVCHILARNING BILIMLARINI TEKSHIRISH UCHUN NAMUNAVIY TEST SAVOLLARI:

1. Adibni koketkaga qaysi chok bilan biriktiriladi?

- | | | | |
|-----------------|-------------|-------------|---------------|
| A | B | C | D |
| Biriktirma chok | Qo'yma chok | Mag'iz chok | Ag'darma chok |







2. Old bo'lak, ort bo'lakKa qaysi chokda tiqiladi?

A Biriktirma chok

B Qo'sh chok

C Ichki chok

D Tahlama chok



3. Yoqani yoqa o'miziga o'rnatishda qaysi chok bilan tiqiladi?


- A) biriktirma;
- B) bezak tahlama;
- C) ag'darma;
- D) burma.

4. Yengsiz kiyimlarda yeng o'mizga qanday chok bilan tiqiladi?

- A) ag'darma, buklama;
- B) mag'iz yopiq qirqimli mag'iz;
- C) buklama, yorma;
- D) to'g'ri javob keltirilmagan.

5. Rasmda yoqa o'mizini aniqlang?

- A) 1; B) 2; C) 3; D) 4



6. Yenglar nechta chokli bo'ladi?


- A) 1;
- B) 2;
- C) 3;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

7. Bir chokli yenglarni yeng o'miziga o'tkazishda yeng chokini qaysi chokga to'g'ri keltirib o'tkaziladi?


- A) yelka chokiga;
- B) etak yuqori qirqimiga;
- C) yon chokiga;

D) yoqa o' miziga.

8. Yeng uchini mag'iz chok bilan tikilgan rasmni ko'rsating?



9. Rasmda qanday bukib tikish ko'rsatilgan?



- A) yashirin qaviq bilan;
- B) qaytarma chok bilan;
- C) bostirma chok bilan;
- D) bukma-bostirma chok bilan.

10. Ko'ylakni so'ngi pardozlash deganda nima tushuniladi?

- A) etak qismini bukish va dazmollash;
- B) ip, bo'rlardan tozalash va dazmollash;
- C) yengni o'rnatish, tugma qadash, izma ochish;
- D) qotirma yopishtirish va dazmollash.

XII. O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH MEZONLARI

[illegible]

7. Old koketkani astari bilan ochiq qirqim bo'yicha ko'klash.															
8. Ort koketkani astari bilan ochiq qirqimi bo'yicha ko'klash.															
9. Old bo'lak etaki yuqori qirqimiga koketkani biriktirib tikish.															
10. Ort bo'lak etakiga koketkani biriktirib tikish.															
11. Old va ort etaklarni koketkaga ulangan chokini yo'rmalash.															
12. Old va ort etaklarni koketkaga ulangan chokni yotqizib dazmollash.															
13. Yengni yeng o'miziga o'tqazish.															
14. Yengni o'mizga ko'klagan chokni dazmollash.															
15. Yengni o'mizga biriktirish.															
16. Yengni o'mizga biriktirgan chokni yo'rmash.															
17. Yengni o'mizga yo'rmalangan chokni dazmollash.															
18. Yeng uchi va ko'ylak etakini bukib tikish.															
19. Oxirgi ishlov berish. (NIIB).															
III. TEST NATIJALARI															
JAMI:															

Izoh:

1) Topshiriqning bajarilishi besh balli tizim asosida baholanadi. Bunda ushbu topshiriqning tarkibiga kiruvchi barcha faoliyat turlari inobatga olinib, ularning har biriga baho berilishi shart.

Topshiriq bo'yicha o'quvchining yakuniy bahosi esa har bir faoliyat turi bo'yicha olingan baholarning jami topilib, ushbu faoliyat turlarining soniga bo'linadi.

2) Qoniqarsiz baho olgan o'quvchilar ma'muriyat ko'rsatgan muddatda mashqlarni qayta topshiradi.

TEST JAVOBLARI (kalit)

[illegible]

XULOSA

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislar modelini yaratish, zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim vazifalardan hisoblanadi.

- BMI da kasb-hunar ta'limida yengil sanoat yo'nalishi bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashning metodologik muammolari o'rganilib, maxsus fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga alohida e'tiborni qaratish lozimligi ilmiy jihatdan asoslandi;

- o'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar asosida mavzuni modulli o'qitishda o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoitlar yaratilishi, o'qitishni jadallashtirishga erishilishi, kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish, mustaqil o'qish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish aniqlandi;

- kasb-hunar kollejida "Xotin-qizlar milliy ko'ylaklarini tikish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotni modulli o'qitishdan va faol usullardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tajriba – sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, "Tikuvchilik texnologiyasi" fani bo'yicha tajriba sinov guruhlarida "a'lo" va "yaxshi" bahoga o'zlashtirish oshdi, "Qoniqarli" baho olganlar kamaydi, "Qoniqarsiz" baho oluvchilar bo'lmadi. Demak, tajriba-sinov guruhlarida yaxshi baholarning oshishi va qoniqarsiz baholarning kamayishi BMI da ishlab chiqilgan "Xotin-qizlar milliy ko'ylaklarini tikish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlarni modulli o'qitishda va faol usullarni qo'llashda ta'lim samaradorligining oshishini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy krizisi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishni yo'llari va choralari" Toshkent. O'zbekiston. 2009.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2000.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: "O'zbekiston". 2000.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: - 1997.

5. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun o'quv-me'yoriy xujjatlar to'plami. Toshkent: - 2006.
6. Abdullayeva Q. Kasbiy fanlar orqali o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish. // J. Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2004. - №6b –B.53-54.
7. “Ta’lim to’g’risida“ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent: 1992.
8. Коблякова Е.Б. Конструирование одежды с элементами САПР. Москва., 1988.
9. Komilova X.X., Hamroyeva N.K. tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Toshkent. 2003.
10. Xasanboyeva G.K., Krimova O.I. Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash., Toshkent. “O'qituvchi. 1990.
11. Лин Жак. Техника кроя. “Мера”. 1992.
12. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. “Nasaf”. 2000.
13. Ochilov M., N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi” Toshkent. 2008.
14. Сидренко В.И. Одежда для польных. Ростов на Дону. “Феникс”. 2001
15. Toshpo'latov S.Sh., Komilova X.X., va boshq. Tikuv buyumlarini loyihalash., Toshkent. “Voriz - nashriyot”. 2007.
16. Taylaqov N. Xalq ta'limiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish – ta'lim sifatini oshirishning omili sifatida // J. Xalq ta'limi. – Toshkent, 2005. - №5. – B. 16-20.
17. Jabborova M. “Tikuvchilik texnologiyasi” T.”O'qituvchi”, 1994
18. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent «Moliya» nashriyoti 2003 yil.
19. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar Toshkent «Fan» nashriyoti 2000 yil.
20. WWW.ya.ru
21. www.silute.ru

BMI Kirish, III bob, 8 §, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, kirish qismida mavzuni dolzarbligi, maqsadi va vazifalari yoritib berilgan. Birinchi bobda qo'yidagi vazifalar bajarildi:

-Zamonaviy milliy ko'ylaklar va ularning modellari tasniflari tuzildi;

-Miliy kuylaklarni tikish texnologiyalari taxlil qilindi va kerakli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yangi turdagi kichik tikuvchilik firmalari va yakka tartibda ish olib boruvchi tikuvchi-chevarlarni ish jarayonida zamonaviy texnologiya va zamonaviy kiyim elementlaridan to'g'ri va keng foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Shu sababli zamonaviy

kiyim elementlaridan to'g'ri foydalanish, ularni qo'llash texnologiyalarini o'rgatish, qo'llanilish texnikasini o'rgatish bo'yicha ishlab uslubiy ko'rsatmalr ishlab chiqilsa nafaqat ayollar milliy kiyimlarini tikishda balki barcha kiyimlarni tikishda dasturil amal sifatida qo'llaniladi.

kerakli tavsiyalar,

Ishlab chiqilgan maskur tavsiyalar nafaqat o'quvchi-talabalarga, o'qituvchilarga "tikuvchilikka qiziqqan qiz, ayollarga, boshqa bo'lim talabalariga birdek ajoyib uslubiy ko'rsatma sifatida xizmat qiladi.

BMI ning II bobda milliy ko'ylaklarni tikish texnikasini va tartibini o'rgatish lozim deb topgan holda mavzuni kasb-hunar kollejlariida yangi pedagogik texnologiyalar asosida ("Modulli ta'lim" metodi asosida) o'qitish loyihalari ishlab chiqildi.

Kasb-hunar kollejlariida mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning kasbiy faoliyat ko'nikma ba malakalarini samarali o'zlashtirishlariga yordam beradi

Shu sababli mazkur ta'lim muassasalarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan mavjud talablarni qondira oladigan darajada ta'minlanishi hamda o'quv-amaliy mashg'ulotlarning malakali ishlab chiqarish ustalari yordamida tashkil etilishi o'quvchilarda muayyan ixtisosliklar bo'yicha kasbiy faoliyat ko'nikma ba malakalarni samarali shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kasb-hunar kollejlariida o'qub-mashqlarda modulli ta'lim metodidan foydalanish o'quvchilarning kasbiy faoliyat ko'nikma ba malakalarini samarali o'zlashtirishlariga yordam beradi. Shu sababli mazkur ta'lim muassasalarining o'qub-uslubiy qo'ddanmalar bilan mabjud talablarni qondira oladigan darajada ta'minlanishi hamda o'qub-amaliy mashg'ulotlarning malakali ishlab chiqarish ustalari yordamida tashkil etilishi o'quvchilarda muayyan ixtisosliklar bo'yicha kasbiy faoliyat ko'nikma ba malakalarni samarali shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yangi turdagi ta'lim muassasalarida ana shu masalaga ahamiyat qaratish kasb-hunar ta'limining etakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi

Zamonaviy ta'lim vositalari asosida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirishga oid tajriba-sinob ishlarining reja va maxsus metodika asosida tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishishni va kutilgan natijani qo'lga kiritishni kafolatlaydi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundaki ishlab chiqilgan tavsiya va dars ishlanmalarini kasb-hunar kolleji o'qituvchi va o'quvchilariga, barcha turdagi kiyimlarni bichish-tikish ustalariga uslubiy qo'llanma sifatida tavsiya etish mumkin.

Ishlab chiqilgan tavsiya va uslubiy ko'rsatmalarimiz kiyimlarni sifatli tikishda va ish samaradorligini oshirishda xizmat qiladi deb xisoblaymiz.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy yangiligi – Xotin qizlar milliy ko'ylaklarini tikish bo'yicha kerakli tavsiyalar tayyorlanganligi va "Xotin qizlar ko'ylaklarini tikish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlar loyihalari zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida ishlab chiqilganligi.